

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**UDK
Qo‘lyozma huquqida**

**MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

ORUNBAEVA NAFISA BAXRAMOVNA

**«NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA
BADIY IFODA VA OBRAZLAR TALQINI»**

Mutaxassislik: 5A141102 - o‘zbek adabiyoti

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.**

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i:
Kafedra mudiri:
Ilmiy rahbar:**

**p.f.n., dots. U.Seytjanova
f.f.n., dots K.Tashanov
f.f.n. S.Matyakupov**

NUKUS – 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. BADIY NIYAT VA QAHRAMON TALQINI.....	7
II BOB. FALSAFIY-PSIXOLOGIK TALQIN.....	25
III BOB. INSON TAQDIRI TALQINI VA IJODIY INDIVIDUALLIK.....	46
XULOSA.....	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	73

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillari yurtimiz hayotida jiddiy o'zgarishlar vujudga keldi. Bu o'zgarishlar adabiyotga ham sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki istiqlool mafkurasi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib bormoqda. O'zligini teran anglab yetgan har qanday jamiyatning turmush tarzida ma'naviyat markaziy o'rinni ishqol etishi muqarrar. Zero, Prezidentimiz I.Karimov qayd etganidek: «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».¹ Shu ma'noda badiiy adabiyot ham ma'naviyatni targ'ib etadi. Shiddatli davr xususiyatlarini badiiy obrazlar orqali yoritib beradi. Shu jihatdan, keyingi yillar adabiyotida o'ziga xos ovoz va uslubga ega bo'lgan ijodkorlardan biri Nazar Eshonquldir.

Har bir ijodkor adabiyot olamiga qadam qo'yar ekan, so'z san'atining murakkab qirralarini teran his etadi. Bu maydonda o'z o'rnini qoldirishga intiladi. Nazar Eshonqul adabiyotda falsafiy fikrlari, sirli, majoziy tasvirlari orqali alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos U.Normatov bu haqida shunday yozadi: «Milliy adabiyotdagi har bir ijodiy hodisaning sababini tashqi omillardan emas, avvalo shu milliy zaminning o'zidan, real voqelikdan, zamona ehtiyojlaridan izlamoq darkor... Bu tamoyillar ayniqsa Nazar Eshonqul ijodida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muallifning «Maymun yetaklagan odam» va «Muolaja» asarlaridan tortib «Bevaqt chalingan bong», «Istilo», «Tobut» hikoyalarigacha - barchasi ifoda va talqin yo'sini jihatidan o'zbek adabiyotida yangi hodisa bo'ldi».²

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. 37-bet.

² Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Ma'naviyat, 2000. 12-bet.

Darhaqiqat, bugungi adabiyotimizda oʻziga xos tamoyilga aylanib borayotgan yangicha asarlar, toʻgʻrirogʻi absurd adabiyotiga xos talqinlar kitobxonlar va ilmiy jamoatchilikda jiddiy qiziqish uygʻotmoqda. Natijada oʻzbek adabiyotshunosligida soʻnggi yillar hikoyachiligi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarning koʻlami, miqyosi, ilmiy-nazariy saviyasi bu borada yaxshi samaralarga erishayotganligidan dalolat beradi. Ularda hozirgi oʻzbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi, milliy qahramon muammosi, badiiy-uslubiy izlanishlar kabi masalalar muayyan ijodkorlar asarlari misolida ilmiy umumlashtirilgan.³

Koʻrinadiki, har bir tarixiy-ijtimoiy davrda dunyoqarashlar oʻzgargani singari insonga boʻlgan qarashlar va uning talqin xususiyatlari ham yangilanadi. Insonning ijtimoiy voqelikka munosabati ham zamonlar oʻtishi bilan oʻzgaradi. Shu maʼnoda, mustaqillik davri oʻzbek adabiyoti, xususan, hikoyachiligida badiiy ifoda va obrazlar talqini masalasini davr, jamiyat va ijtimoiy voqelik bilan vobasta oʻrganishni hayotning oʻzi taqozo etayotir. Ushbu masalalarning oʻzbek nasrida inʼikos etganligi qay darajada oʻrganilgan boʻlmasin, aynan, N.Eshonqul ijodi misolida chuqur oʻrganilgan emas. Magistrlik dissertatsiyamizda biz mazkur muammoni N.Eshonqul hikoyalari misolida tadqiq etib, bashariy qadriyatlar bosh mezon hisoblangan nazariy-estetik qarashlar asosida ilmiy umumlashtirishga harakat qildik.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari. Ishda koʻzda tutilgan asosiy maqsad N.Eshonqul hikoyalarida oʻz aksini topayotgan obrazlar va ularning badiiy talqinining gʻoyaviy-estetik mohiyatini oʻrganish va uning

¹Doʻstmuhammedov X. Hozirgi oʻzbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi: Filol. fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -T.: 1995. -B. 28; Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzaev hikoyalarining badiiy-uslubiy oʻziga xosligi: Filol. fanlari nomzodi ...diss. -T.: 2000. -B. 130; Hamidova M. Hozirgi oʻzbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Sh.Xolmirzaev ijodi misolida): Filol. fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -T.: 2001. -B. 22; Tavaldieva G. Shukur Xolmirzaev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish printsiplari: Filol. fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -T.: 2001.-B. 22; Sattorova G. 90-yillar oʻzbek hikoyachiligida milliy xarakter muammosi: Filol. fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -T.: 2002.-B. 25; Matyakupov S. Hozirgi oʻzbek hikoyalarida inson kontseptsiyasi va shaxs badiiy talqini: Filol. fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -T.: 2006.-B. 26.

ilmiy-nazariy asoslarini yoritishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqotimiz oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- N.Eshonqul hikoyalarida badiiy tasvirning o'ziga xosligini tahlil qilish;
- qahramonlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini yoritish barobarida badiiy idrok va ifoda yo'sinlarini tahlil qilish, nazariy jihatdan umumlashtirish;
- shaxs va umuminsoniylik masalasini o'rganish;
- qahramonlarni badiiy-estetik tadqiq etishdagi majoziy tasvir usullarini kuzatish;
- hikoyachilikdagi badiiy tajribalarda konfliktlarning botiniy shakllarini, yetakchi belgilarini aniqlash;
- adib hikoyalarida qahramonlarni badiiy aks ettirish bilan bog'liq yuzaga kelgan tamoyillarning o'ziga xos jihatlari haqida ilmiy xulosalar chiqarish.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan adabiyotshunoslikda, shuningdek, o'zbek nasrining taraqqiyot xususiyatlarini o'rganish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida o'zbek adabiyoti bo'yicha maxsus kurslar va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda ham manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi. N.Eshonqul hikoyalarining o'ziga xos qirralari bir qancha nomzodlik dissertatsiyalarida muayyan darajada o'rganilgan. Mazkur magistrlik dissertatsiyamizda adib hikoyalari monografik yo'sinda keng tahlil qilinib, bashariy qadriyatlar bosh mezon hisoblangan nazariy-estetik qarashlar asosida ilmiy umumlashtirilmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Prezidentimiz I.Karimov asarlaridagi adabiyot va san'at, tarix, ma'naviyat, ma'rifat hamda milliy mafkura va milliy g'oya masalalari yuzasidan ilgari surilgan nazariy fikrlar magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosini tashkil etadi. Belgilangan masalalarni tadqiq etishda jahon, rus, o'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlarga

tayanildi. Qahramon tanlash, badiiy idrok va ifoda etishdagi adiblarning o'ziga xosligini yoritishda qiyosiy-tarixiy o'rganish metodidan foydalanildi.

Tadqiqotda N.Eshonqul hikoyalari ilmiy-nazariy tahlil qilinib, ba'zi o'rinlarda istiqlolgacha bo'lgan va istiqlol davri hikoyachiligimiz namunalari bilan qiyoslandi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 73 sahifani tashkil etadi.

BADIIY NIYAT VA QAHRAMON TALQINI

Istiqlol adabiyotimiz oldiga xalqimizning azaliy merosini, milliy qadriyatlarini umuminsoniy mezonlar bilan o'rganish va jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni hamda ahamiyatini ko'rsatish masalasini ko'ndalang qo'ydi. Zero, «Har birimizda milliy g'urur, milliy ong, tafakkur rivojlangan va barqaror bo'lishi taraqqiyotga erishishning eng muhim omilidir».¹

Bugungi kunda adabiyotimizning barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, hikoyachilikda ham sifat jihatdan o'zgarish va yangilanish jarayoni kechmoqda. Bu narsa birinchi galda qahramonlarning ma'naviy-intellektual faoliyatida, ruhiy hayotida namoyon bo'layotir. Ma'naviy qadriyatlarni bashariy mezonlar bilan o'rganish va baholash, o'zlikni anglashning o'sishi, xalqimizning ma'naviy sarchashmalar ildizlariga qaytishi asosida mustaqillik mafkurasining poydevorini mustahkamlashga intilish ma'lum darajada hozirgi davr hikoyachiligida ham namoyon bo'lmoqda.

Demak, dunyoqarashlar o'zgarib, ularga bo'lgan munosabatlar ham bashariy miqyos kasb etgan holda insonparvarlik xususiyatlari bugungi shaxs faoliyatining o'zak asosiga aylandi. Jamiyat asoslarini, buguni va kelajagini ezgulik va go'zallik qonuniyatlari asosida yangilash, o'zgartirish yangi shaxs ijtimoiy-ma'naviy faoliyatining bosh pafosi bo'lib qoldi. Hozirgi davr o'zbek hikoyalarida badiiy ifodasini topayotgan ana shu o'zgarishlarni nazariy va badiiy jihatdan tahlil qilish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Ta'kidlash joizki, bugungi hikoyachiligimizdagi qahramon masalasi olam va odamni yangicha idrok etib, yangi dunyoni bunyod etayotgan inson

¹Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1998. -B. 341.

hayotini tasvirlash bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rinadiki, adabiyot va san’at hamisha insonni ulug‘lab, tarannum etadi. Insonning jamiyat, tabiat, olam sir-sinoatlari bilan aloqalari san’atning, shu jumladan, adabiyotshunoslikning ham eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, har bir davr adabiyoti o‘z qahramonlarining falsafiy-estetik dunyosi bilan bir-biridan farq qiladi.

Istiqlol XX asr oxiri o‘zbek adabiyoti tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugun biz har qanday ta’qiblardan holi bo‘lgan yangi milliy mafkura, yangi e’tiqod bilan uzoqlashib qolgan adabiyot sal kam bir asr mobaynida juda katta qiyinchiliklar bilan xalqimizning davrini, hayotiy falsafasini, milliy tuyg‘ularini goho ochiq, goho yashirin ifoda qilib keldi. Natijada asr boshida erkinlik, ozodlik, istiqlol orzusi bilan yashagan, shu muqaddas yo‘lda kurashgan va qurbon bo‘lgan ajdodlarimiz-jadidlarning niyatlari mustaqillik sharofati bilan ushalib turibdiki, albatta, biz ularning yangi taraqqiyot davrining tamal toshini qo‘ygan insonlar sifatida qadrlaymiz. Hozir yangi istiqlol adabiyoti shakllanmoqda. Lekin aslida yangi adabiyot «O‘tgan kunlar», «Kecha va kunduz», «Abulfayzxon» kabi asarlar yaratilganda o‘z kurtagini ko‘rsatgan.

O‘tgan asr adabiyotining o‘ziga xosliklari, yutuq va kamchiliklarini sarhisob qilgan bir qator adabiyotshunoslar, tanqidchilarning davra-suhbati matbuotda e’lon qilindi. Bugungi kun adabiyotiga xolisona baho berishga harakat bo‘ldi. Xususan, adabiyotshunos Ozod Sharofiddinov XX asr o‘zbek adabiyotining yangi tarixini yaratish, ya’ni shu orqali qator yozuvchi, shoirlarning ijodiga ob’ektivlik mezoni asosida xolisona baho berish zarurligini aytdi va «...bugun umidsizlikni yig‘ishtirmoq, yangi adabiyotning rivojiga faol ko‘maklashmoq zarur»¹ degan muhim fikrni o‘rtaga tashladi.

¹ Sharofiddinov O. Adabiyot mangu yashaydi. Jahon adabiyoti. -19981 №1-B 4.

Hozir istiqlool tufayli erkinlik tuygʻusi, yurtga egalik hissi adabiyotda oʻz aksini topmoqda. Yaratilayotgan asarlarda falsafiy fikrlarning kuchayishi, inson qalbining chuqurroq tadqiq etila boshlagani, voqelikni badiiy idrok etishda rang-baranglikning paydo boʻlayotgani adabiyotning yashayotganidan darak bermoqda.

Bugungi oʻzgarishlar davrida istiqlool tufayli voqeligimizda sodir boʻlayotgan yangiliklarni badiiy idrok etish, yangi mavzularga qoʻl urish yozuvchilardan katta masʼuliyat talab qiladi. «Bugun adabiyotda qanday oʻzgarishlar, yangiliklar koʻzga tashlanmoqda, mustaqillik insonlar ongiga, ruhiyatiga qanday taʼsir koʻrsatmoqda inson haqidagi haqiqat adabiyotda qay darajada oʻz ifodasini topmoqda, adabiyotdagi yangiliklar qaysi qonuniyat asosida roʻy bermoqda, bu qonuniyatning asosi nima?» kabi savollarga qator yozuvchilarimiz istiqlool davri hikoyachiligiga bagʻishlangan «Uygʻonish taraddudi» nomli davra suhbatida oʻz fikr-mulohazalarini bildirdilar. Unda hikoyachilikda qator ijobiy fazilatlar koʻzga tashlanayotganini koʻrsatish bilan birga baʼzi bir yoqlama fikrlar ham aytiladi. Jumladan, Erkin Aʼzamov bozor sharoitida kim hikoya yozadi, «fidoyilar zamon oʻtganga oʻxshaydi», «Adabiyotda yangilik, yangi gapning oʻzi yoʻq, xolos» degan fikrni aytadi. Bunga javoban tanqidchi U.Normatov «Gap aytishning davri oʻtdimi?» maqolasida bugungi istiqlool sharoitida inson haqidagi haqiqatni-gapni aytish davri kelgani eslatib, bunday oʻzgarishlarni Sh.Xolmirzaev, U.Azimov, X.Doʻstmuhammedov, N.Eshonqul, N.Norqobilov ijodida roʻy berayotganini bir necha asarlar tahlili orqali koʻrsatib berdi.

Bugungi nasrimizdagi yangi jarayonlar, maʼnaviy, shakliy-uslubiy izlanishlar hikoya janrida ham yorqin namoyon boʻlayotir. Ayniqsa soʻz sanʼatining oʻzak masalasi insonni anglash, inson tabiatining, qalbining tushuntirish qiyin boʻlgan sir-sinoatlarini taftish etish, inson jumbogʻi ustida astoydil bosh qotirish, eng muhimi bu borada odatdagi andazalardan qochib

yangi yo‘llar axtarish hikoyachiligimiz rivojidadagi yetakchi tamoyilga aylanib borayotir. Insonni anglash, inson shaxsini tahlil va talqin etishda bizda uzoq yillar ustuvor bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy yondashish an‘anasi davom etayotgani holda XX asr jahon adabiyotida keng tarqalgan estetik falsafiy oqimlar tajribalariga astoydil qiziqish, qolaversa, Sharq adabiyotining buyuk merosi diniy-islomiy aqidalar, tasavvur falsafasi va estetikasiga qaytish hozirning o‘zidayoq o‘z samarasini bermoqda, lekin bu degani bugungi kundagi hamma asarlar ham maqtovtalab degan xulosaga kelish emas. Ayrim asarlarda hali ham oddiy bayon uslubi, voqealar tizmasidangina iborat asarlar ham uchrab turadi. Masalan. ayrim hikoyalarning hajmi ancha katta bo‘lgani bilan aytilmoqchi bo‘lgan fikr sayoz bo‘lib qolmoqda.

«Ta’kidlash kerakki, hikoyabop fikrni hikoyada, qissabop fikrni qissada, romanbop fikrni romanda ifodalash kerak. Agar yozuvchi hikoyaga loyiq fikrni romanda ifodalashga intilsa yoki aksincha, romanbop fikrni qissada, qissabop fikrni hikoyada berishga urinsa, san’at asarida mazmun va shakl mutanosibligi buziladi-u albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi».¹

Mazkur jarayon iste’dodli adib N.Eshonqul hikoyalarida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Darhaqiqat bugungi kundagi o‘zbek nasrida iste’dodli yozuvchimiz N.Eshonqulning o‘rni beqiyosdir. Adib keyingi yillar mobaynida yozgan talay hikoyalarida asosan o‘sha ma’nisiz o‘tgan umr manzaralarini ko‘rsatib berdi. XX asrning 80-yillar oxirlarida matbuotda yozuvchining «Maymun yetaklagan odam» hikoyasi paydo bo‘lgandi. Hikoyada asrga tengdosh, umri asrning alg‘ov-dalg‘ovlari, bema’ni maqsadlar yo‘lida o‘tgan, adashgan odamning fojeiy qismati ifoda etilgan edi.

Hikoya qahramoni mo‘yqalami tomonidan yaratilgan o‘z ijodiy, ijtimoiy faoliyati ibtidosi va intihosiga daxldor ikki badiiy tasvir-qorong‘u

¹ Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: -2002. 94-bet.

to‘qayzordan «Nurafshon maskan» sari maymun yetaklab chiqayotgan navqiron shijoatkor yigit va qari maymun etagida to‘qayzor tomon qaytayotgan munkillagan chol surati ayni o‘sha ramziy hayot yo‘lining chuqurlashtirilgan tahlili bu asar bizda zamondosh-asrdosh obrazini yaratish yo‘lidagi yetmish yillik tajribaning muayyan intihosi va bu boradagi yangi bosqichning boshlanishi bo‘ldi.

Nazar Eshonqul mana shu davr ichida o‘zining ko‘pgina hikoya va qissalarini yaratdi. «Xaroba shahar suvrati», «Muolaja», «Tobut», «Istilo», «Bevaqt chalingan bong», «O‘lik mavsum», «Og‘riq lazzati», «Shamolni tutib bo‘lmaydi», «Tun panjaralari», «Qora kitob», «Urush odamlari» kabi bir qator hikoya va qissalari o‘zligimizni anglashda bizga yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek nasridagi modernizm usuli XVIII asrning ikkinchi yarmida Fransiya yaratildi va rivojlantirildi. Bu usul qachonlar yaratilganu bizga endi kelyaptimi degan savol tug‘iladi. Bu oqim XX asr boshlarida yashagan ziyolilarimiz ijodiga ham ta’sir qildi. Shahnoza To‘ychiyevaning «Cho‘lpon va Kamyu» maqolasida Cho‘lpon va Kamyu romanlarida yozuvchilar qo‘llagan ayrim usullar chog‘ishtirma tahlil etiladi.

Ikkala voqeada ham jinoyat sodir etilgan. Zebi jinoyat qilgani yo‘q, lekin har ikkalasi jazoga hukm qilingan. Bir Mersoni sodir etilgan qotillik uchun emas, balki onasiga bo‘lgan munosabati uchun ayblashayapti. Zebi va Mersoning haqiqiy hayoti va sud ahlining buni qanday «ko‘rishi» orasida nomutanosiblik vujudga keldi. Mana shu narsa yozuvchilarning badiiy tizimida yetakchi assimetriya absurddir.

Hozirgi o‘zbek nasrida hatto ijodiy yo‘nalishi mohiyat e’tibori bilan hayotbaxsh tasdiqlovchi ruhda bo‘lgan yozuvchi, shoirlar bisotida ham absurdni eslatuvchi asarlar ko‘rina boshladi. Shular jumlasidan Murod Muhammad Do‘stning «Lolazor», O‘tkir Hoshimovning «Tushda kechgan

umrlar», Shukur Xolmirzayevning «Olabo'ji», Omon Muxtorning «Ming bir qiyofa» romanlarida obrazlar umri faoliyatining, ular amal qilgan aqidalarning, yashagan muhitning bema'niligiga alohida urg'u berilgan. Bu tamoyillar ayniqsa Nazar Eshonqul ijodida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Yozuvchining «Maymun yetaklagan odam» va «Muolaja» asarlaridan tortib «Bevaqt chalingan bong», «Istilo», «Tobut» hikoyalarigacha barchasi-ifoda va talqin yo'sini jihatidan o'zbek adabiyotida yangi hodisa bo'ldi. Avvallari ham asrdosh, zamondosh kishilarning fojeiy qismatidan hikoya qiluvchi asarlar yaratilgan. Biroq ularda ko'proq fojialar ildizi, mohiyati o'zgacha talqin etilgan. Bu tur asarlarda qahramonlar yo adashgan, hayotning katta yo'lidan chetga chiqqan, axloq normalarimizdan chekingan xudbin kimsalar yoki adolat, ezgulik, yuksak ideallar yo'lida jiddiy g'oyalarga, qarshiliklarga duch kelgan «sotsializm printsiplaridan chekinish» tufayli qurbon bo'lgan siymolardir.

Yozuvchining «Istilo», «Tobut» hikoyalarida asli bema'ni g'oyalar - adolatsizlik, shafqatsizlik, zo'ravonlik asosiga qurilgan, inson hayoti va qalbini zabt etib undagi tabiiy, boqiy qadriyatlarni mahv etishga qaratilgan, oqibat-natijada esa halokatga mahkum totalitar tuzum va yakkahokim mafkuraning dahshatli majoziy manzaralari chiziladi.

Tanqidchi Abdulla Ulug'ov o'zining «Dardmand dil iltijolari» maqolasida bugungi adabiyotimizdagi boshqa bir muhim tamoyil xususida so'z ochadi. «Ruhimizning hech bir qonuni, farmoyishlarga sig'ishmaydigan quvonch, qayg'udek turfa bisotlari bisyor. Endilikda esa iste'dodli ijodkorlarimiz ana shu izohsiz olam ranglarini chizishga intilishmoqda. Ular suratlantirayotgan manzaralarda insonning har lahzada ming bir qiyofa aks etadigan bezovta ichki olami namoyon bo'layapti».

Adabiyotshunos olim Umarali Normatov va Rahimjon Rahmatning «Nazariya va adabiy-badiiy jarayon» suhbat maqolasida bugungi kun qahramoni to'g'risida shunday deydi:

«Adabiyotshunos olim Izzat Sulton: «Tadbirkorlar - hozirgi

najotkorlarimiz, shamchiroqlarimiz. Shuning uchun adabiyotimizning vazifasi - hamma sohadagi tadbirkorlarni bosh qahramon sifatida san'atga olib kirishdan iborat», deydilar. U kishi bu fikrini tasdiqlash uchun quyidagilarni ilova qilib o'tadilar: «Hamma vaqt ularni amalga oshiruvchi kishilar adabiyotning markazida bo'lgan. Hozirgi kunda hayot tadbirkorni o'rtaga chiqargan ekan, uni e'tibordan soqit qilib yubora olmaymiz.

Bizningcha, tadbirkorlik g'oya emas, oddiy faoliyat turi, xolos. Jamiyat taqdirini hal qiluvchi g'oya deyilganda iqtisodiy maqsadlar tushunilmagan, zamona ziddiyatlarini, fojialarini o'z shaxsiy hayotida jam etgan odam, u xoh o'qituvchi, xoh tadbirkor bo'lsin, adabiyotning bosh qahramoni bo'lishi mumkin. Kamyuni olaylik. Bu yozuvchi nemislar Fransiya bosib olgan kezlari ijod qilgan. O'sha payt Fransiya xalqi uchun eng najotkor g'oya ozodlik edi. Lekin Kamyuning «Begona», «Vabo» kabi asarlarida o'z mamlakati uchun yetakchi g'oyalar uchraydimi? Kamyu absurd tuyg'usini adabiyotga bosh qahramon sifatida olib kirgan. Demak, aytish mumkinki, adabiyotning bosh qahramoni muayyan tuyg'ulardir. O'tgan yetmish yil davomida qanaqa toifa kishilar sho'ro adabiyotining bosh qahramoni bo'lishi lozimligi xususida qanchadan qancha tavsiyalar berilmadi.

Chunonchi, ishchi obrazi, kommunist obrazi, jangchi obrazi, xotin-qizlar obrazi-ularning son-sanog'iga yetib bo'lmaydi. Izzat Sulton aytgan bugun jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch - «Hozirgi najotkorlarimiz», «shamchiroqlarimiz» sanalmish tadbirkorlar obrazi sal boshqacharoq nom bilan oltmishinchi, yetmishinchi yillar adabiyotida kun tartibiga qo'yilgan edi. O'sha yillari, avvalo, rus adabiyoti, so'ng qardosh adabiyotlarda -

«ishbilarmon odamlar» rivojlangan sotsializm davri adabiyotining – «bosh qahramoni» ekani xususida qanchadan-qancha gap-soʻzlar, bahs-munozaralar boʻlmadi, deysiz. Xoʻsh, bugun qani oʻsha obrazlar. Oʻsha yillari yaratilgan bugungi kunda ham qadrini yoʻqotmagan asarlar - ularning aksariyati tarixiy romanlar, ishbilarmonlikka aslo aloqasi yoʻq, «jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» boʻlmagan, koʻzga tashlanmaydigan «nomaʼlum odamlar» bugun ham adabiyotimiz dovrugʻini xorijga olib chiqayotgan asarlardir».¹

XV asr jahon taraqqiyparvar adabiyotiga nazar tashlasak-insoniyatning koʻp asrlik badiiy tafakkuri, adabiyot tarixida inqilob yasagan, yangi davr ochgan Prust, Joys, Kafka, Kamyu, Sartr, Markesning mashhur asarlari qahramonlarini eslaylik. Qaysi asar markazida siz tadbirkorlar obrazini koʻrasiz. Qaysi asarda tadbirkorlar jamiyatning «najoktori», «shamchirogʻi» etib tasvirlangan? Holbuki, oʻsha yozuvchilarning vatanlarida ham bozor iqtisodi amal qiladi, tadbirkorlar katta kuch. Nega u yerlarda birorta aqli raso odam, adabiyotshunos olim tadbirkorlar sanʼat va adabiyotning bosh qahramoni boʻlishi kerak, degan talab taklif bilan chiqmaydi.

Asar qahramoni davlat arbobi boʻlar, tadbirkor boʻlar, oddiy kamsuqum kimsa boʻlar, kim boʻlishidan qatʼiy nazar, insonshunoslikning hech qaysi sohasi, turi qoʻli yetmaydigan, faqat sanʼat va adabiyotgina kashf etishi mumkin boʻlgan shaxs jumbogʻi koʻtarilsin.

Modernizm shu maʼnoda yangi narsa emaski, u goʻyoki oʻtmishdagi biron bir anʼanaga tayanmaydi desak toʻgʻri boʻlmaydi. U yangi «Modern» emaski, boshqa zamonlarda, boshqa mamlakatlarda yashab oʻtgan boshqa sanʼatkorlar oʻz asarlarini hozirgi modern sanʼatkorlari amal qiladigan prinsiplarga tayanib yaratgan emas, desak bu ham toʻgʻri boʻlmaydi.

Hozirgi nasrimiz rivoji bilan bogʻliq munozarali masalalar koʻp. Ayniqsa nasrdagi anʼanaviylik va modernizm muammosi qizgʻin tortishuvlarga asos

¹ Rahmat R., Normatov U. Nazariya va adabiy-badiiy jarayon // Jahon adabiyoti. 2000. Mart, 153-bet.

bo'lmoqda. Badiiy asar qimmatini qaysi yo'nalish - an'anaviy yoki modernizm shaklida yaratilganida emas, balki u chinakam san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan yoki ko'tarilmaganligi bilan belgilanadi. Asarning qaysi yo'nalishga mansubligi hali uni himoya qilish yoki rad etish uchun asos bo'lmaydi. Frans Kafkaning bir ibratli gap bor. Uningcha, adabiyotdagi sinovlardan o'tgan eski narsalarning eng bebaho fazilati - mangu bo'lishi bilan ajralib turadi. «Shunchaki yangilik-o'z-o'zidan o'tkinchi narsa, - deydi u. - Bugun u go'zal bo'lib ko'rinishi mumkin. Ertaga esa bir tuturiqsizlik oshkor bo'ladi. Adabiyot yo'li ana shunday.

Yuqoridagi kuzatishlardan ma'lum bo'layaptiki, bugungi o'zbek nasri kechagi kun asorati ostida bir joyda deysinib turgani yo'q. U jamiki kam-ko'stlariga qaramay harakatda, ham mazmun, ham shakl tomondan izlanish, yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Hozirning o'zida bu harakatning xayrli samaralarini ko'rib turibmiz. Bu hol nasrimizning ertasiga umid uyg'otadi.

Hozirgi kunda adabiy jarayonda noan'anaviy yo'nalishdagi hikoya va romanlar shakllanib kelmoqda. Xurshid Do'stmuhammad, Omon Muxtor kabi yozuvchilarimizning hikoya va romanlari o'z tasvir yo'li, syujeti, mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Ularning asarlarini o'qiganimizda voqealar oddiydek tuyuladi, lekin o'quvchini, kitobxonni o'yga toldiradi. Undagi har bir obraz, narsa-buyumlar ramz asosida beriladi. Qahramonlar oddiy qahramonlardan farqli o'laroq g'ayrioddiylik bilan ajralib turadi.

Nazar Eshonqul asarlaridagi voqealar xayolda kechsada, voqe'likdan ayri yaratilmagan. Yozuvchining «Tun panjaralari», «Qora kitob», «Urush odamlari» qissalari, «Maymun yetaklagan odam», «Shamolni tutib bo'lmaydi», «Og'riq lazzati», «O'lik mavsum», «Istilo», «Xayol tuzog'i», «Ochilmagan eshik», «Ajr», «Qaytish» kabi hikoyalari bugungi nasrda o'z mavqeiga ega.

Uning tili beshafqat, - deb yozadi yozuvchimiz Xurshid Do'stmuhammad- ba'zan me'daga tegadigan darajada qora bo'yoqlarga boy, lekin ifodalar beshafqatligi, qora rangning quyuqligi zamirida bedod tuzum tufayli barbod bo'lgan umrga, umrlarga nisbatan rahm-shafqat to'la edi.

Nazar Eshonqul dastlabki hikoyalari bilan adabiyotga havaskor-boshlovchi qalamkash emas, professional malakadagi adib sifatida kirib keldi. U oz, lekin soz yozdi. Adabiy jamoatchilik, keng muxlislar ommasi uning hikoyalarini kutadigan bo'lishdi. Kutsayam intiqlik bilan kutadigan bo'ldi.

Nazar Eshonqulning barcha asarlarida qo'lansa is qahramonning ruhiy holatini bo'rttirib tasvirlashda o'ziga xos vositaga aylanadi. Ehtimol, ayrim o'rinlarda yozuvchi qora bo'yoqni haddan tashqari quyuqlashtirib yuborgandek tuyular, lekin bu tasodifiy emas. Nazar Eshonqulning tasvirlarida tasodifiylik, noaniqlik, nokerak tashbehlar uchramaydi, zero, u so'zni nihoyatda nozik his etadi, boshqacha aytganda Nazar Eshonqul o'z so'ziga javob beradigan yozuvchilar sirasiga kiradi.

Qissa va hikoyalarning nomlanishiga e'tibor beraylik, ulardagi tun, qora, xaroba, zulmat, tobut, o'lik, og'riq sifatlari umumlashib, Nazar Eshonqul badiiy tafakkuri o'q chizig'ini tashkil etadi, yozuvchining erksizlik, mustabidlik, yovuzlik va razolatu qabohatga bo'lgan cheksiz nafratidan, mana shunday g'ayri-insoniy holatlar tug'diradigan ufunatli, qo'lansa va shikasta qisimatlarning alamidan kelib chiqadigan faryod va nidolar sifatida o'qiladi. Bir asarda boshlangan faryod va nido keyingisida tasvirlangan norizo va bo'ysunmas isyonda davom etadi. Nazar Eshonqulning barcha asarlarida qadimiy vazmin va ma'yus musiqa yanglig' saqlanib kelayotgan birdek tanish ohang kitobxonlarimizni ham g'oyatda ta'sirchan, sirli va mushohadakor o'ylarga tildiradi.

Yozuvchi bu asarlari bilan insonni ichki dunyosini, nozik ruhiy qatlamlarini ochib beradi, hamda sizni tasavvur va ruhiy olamning turli burchaklariga sayohat qildiradi.

Bugungi hikoyachiligimizga badiiy psixologizm-tuyg'ular realizmi tahlili nuqtai nazaridan qaraydigan va o'rganadigan bo'lsak, unda avvalgi o'n yilliklardan farqli o'laroq hayotni, insonni tuyg'ular tarhi, kechinmalar dinamikasi orqali badiiy tadqiq etish madaniyati shakllanganligini kuzatish mumkin. Avvalgi o'n yilliklarda sotsiologik talqin va o'shanga mos badiiy idrok va ifoda yetakchilik qilgan bo'lsa, bugunga kelib insonni falsafiy-psixologik tushunish hamda tushuntirish ustuvor tamoyil bo'lib qoldi. N.Eshonqulning «Xayol tuzog'i» hikoyasi bu borada fikr yuritish uchun asos bo'la oladi.

«Haqiqiy san'atkor qay davrda yashashidan qat'i nazar, hayotning taraqqiyot tendentsiyalarini shunga qarab belgilashi uning birinchi darajali ijodiy yutuqlaridan hisoblanadi»¹ -degan edi, I.Sulton. Qolaversa, V.G.Belinskiy uqtirganidek, «...badiiy asarda tasvir etilayotgan go'zallik hayotning o'zida mavjud va shu go'zallikni yorqin ko'rsatishning o'zi badiiylilik va haqqoniylikning birinchi shartidir»². Nazar Eshonqul ijodiy izlanishlari misolida uning amaliy tasdig'ini ko'rishimiz mumkin.

Adibning «Xayol tuzog'i» hikoyasida falsafiy ruhiy tahlilning o'zgacha ko'rinishining shohidi bo'lamiz. Hikoyada axloqiy pokdomonlik-boqiy ma'naviy qadriyat hamma vaqt adolatning asosiy mezonlaridan biri sifatida talqin etiladi. Bu-masalaning bir jihati. Ikkinchi va eng muhim jihati shundaki, barcha baxtsizlik, xo'rliklar va xorliklar ko'nglimizda o'sib-ulg'ayib mutelik tuyg'ulari tarzida hosil berar ekan, hammasiga o'zimiz sababchi bo'lamiz. Yo'qsa, aql-hushi butun, iste'dodli Voqif vos-vos kasaliga chalinib, savdoyi bo'lib qolarmidi?

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild.-T.: Fan, 1979. II jild.-B. 162.

² Белинский В.Г. Полное. собр. соч. – М.: Наука, 1954. Т. 5. -С. 556.

Nazar Eshonqul «Ijod-ruhning hurligidir» mavzuidagi suhbatida shunday degan edi: «Bugungi o'tish davri kabi o'tkinchi «asar»lar serob. Shunday bo'lsa ham bozorbop yoki bugun bozori chaqqon asarlarni adabiyot deb baholayvermaylik. Adabiyot-millat ruhining, millat madaniyatining bir qismi. U sotilmaydi, sotib olinmaydi, yolg'on gapirolmaydi. Inson nomini asrlar osha mag'rur kuylab turadi. U har qanday jamiyatda ham inson ruhining mash'alasi bo'la oladi. Ijod-Oллоh taolo insonga bergan eng buyuk ne'mat. Ijod inson ruhining hurligidir. Shu sababli unda yolg'on gapirib bo'lmaydi»³.

Adibning mazkur estetik konsepsiyasi «Xayol tuzog'i» hikoyasida go'zal badiiy tajassumini topgan. Asar ijodkor shaxs fojiasini, savdoyilikka muhtalo bo'lgan inson qismatining o'kinchi va dahshatini iste'dodli a'zosini himoya etolmagan va aksincha, odamni jinni bo'lishga majbur etgan muhitning kasallik ildizlarini ochib ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Akademik Izzat Sulton ta'kidlaganidek, «realizm hayotdan nusxa ko'chirish emas, hayotni fikr «elagidan» o'tkazib, uning «mag'zini chaqib» tasvirlashni talab etadi»¹. Bu narsani akademik M.B.Xrapchenko asarlarida yanada chuqur ta'riflangan holatini kuzatamiz. «Realistik metodning mohiyatini, uning jonini, qalbini ijtimoiy tahlil, insonning ijtimoiy tajribasini tadqiq va tasvir qilish orqali shaxs bilan jamiyat orasidagi sotsial munosabatlarni, hamda jamiyatning ichki tartiblarini o'rganish va tasvir etish tashkil qiladi»².

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonning iqboli-yu, zavoli o'z tabiati va shu inson voyaga etgan jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslari bilan bog'liqdir. «Yirtqichdan qochgan quyon ovchi tuzog'iga tushib qolganidek, Voqif ham o'zining omadsizlik, tushkunlik va umidsizlikdan iborat umr

³ Eshonqul N. Ijod-ruhning hurligidir // Yozuvchi. 1998. 21-yanvar.

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 1980. 306-bet

² Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. -М.: Худож. лит., 1970. - С. 191.

bo‘ronlaridan qochib, xuddi o‘zi tasvirlagan shahar o‘rtasidagi ulkan binoday mahobatli va servahm xayol tuzog‘iga tushib qolgan edi. Odam hayotiga mahbusligini, bu hibsonadan faqat xayollar orqaligina uchib chiqishi va shu yo‘l bilangina ko‘ngli va ruhini ozod qilishi mumkinligini uzoq uqubatlardan so‘ng anglab etgan kishigina shunday tuzoqqa tushishi mumkin»³.

Ko‘ngil va ruh erkinligi-bu masalaga tasavvufiy tasavvur tushunchalar orqali tiriklik mohiyatini baholash emas, u insoniyatni ma’naviy nafs masalasining rangin qirralaridan biri tariqasida o‘ylantirib kelayotgan muammodir. Insonga ato etilgan tiriklik saodatli ne’matmi yoki ruhiy qullik ko‘rinishlaridan birimi? Balki Hayot deb atalgan tuzoq Insonni ovlash uchun yaratilgan vositadir? Inson shunchalar shafolatga va shunchalar qabohatga moyil hilqatmi? U shunchalar buyuk va shunchalar tuban mo‘jizami? Inson o‘zining dunyoga kelish sabablari-yu bu dunyodan ketish oqibatlarini o‘ylab o‘zini o‘zi adoyi tamom qiladimi? Agar u Hayot deb atalgan bino bilan tiriklik deb atalgan Nafasning quli bo‘lmasa, oqibat nima bilan tugardi?

N.Eshonqulning «Xayol tuzog‘i» hikoyasida yuqoridagi mulohazalar asosida adib o‘z qarashlarini ifoda qiladi. Hikoya qahramoni Voqifni halokatga, fojiaga olib kelgan omillar shunchalik serobki, uning sevgi-muhabbatda ham, kasb-kor etagini tutishda ham baxti butun emas. Sevgilisi Robiya bilan oila qurishda qarshilikka duch keladi, tirikchilik bir navi o‘tib turishi uchun esa o‘rtamiyona bir gazeta redaksiyasida ishlashga majbur bo‘ladi. Qolaversa, uning irodasining tizgini ham o‘z izmida emas, u ixtiyorini muhitning ra’yiga, tartib-tuzumlariga topshirib qo‘ygan shaxs. Voqif tomonidan yo‘l qo‘yilgan gunohlardan biri ham aynan shunda. Irodasining sustligi, o‘z ixtiyorini qo‘ldan boy berishi Ollohning irodasiga befarqlik bilan barobardir. Bu esa o‘z iroda kuchiga ham ishonchi sust demakdir. O‘zigaki ishonmagan, o‘z ko‘ngligaki tayanmagan inson

³ Eshonqul N. Xayol tuzog‘i // Sharq yulduzi. -1994. -№ 9. 152-bet.

Yaratganning irodasiga ham sustlik ko'rsatadi. Ishonch tuyg'usi esa ma'naviy mas'uliyatdan, ichki zaruratdan, ko'ngil qat'iyatidan vujudga keladi. O'z irodasi kuchiga mas'ullik, ruhiy ehtiyoj va qat'iyat Olloh irodasiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Olloh irodasiga tayanib o'zining yo'lidan toymaslik insonni gunohga chalinishdan asraydi. Yorug' saodat, ezgu amallar sari undaydi.

«Bu dunyoda noma'lum narsalar shunchalik ko'pki, bu noma'lumlik har qanday odamni yutib yuborishi hech gap emas. Eng yomoni-o'zingga o'zing noma'lum bo'lib qolishing. Noma'lumlik har kecha mening ustimga lashkar to'plab keladi, tuzoq tashlab ko'radi. O'ziga-o'zi noma'lum odam-qiyofasi yo'q odam. Qiyofasi yo'q odam tiriklar binosida yashay olmaydi. Bu eski, badbo'y binoni qanchalar kezmasin, o'ziga qiyofa topolmaydi. Qiyofasi yo'q odam esa o'lgan odamdirl...»¹. Hikoya qahramoni Voqifning ushbu muhokama-mulohazalari bu o'z irodasi tizginini boy bergan, ruhi so'niq, ko'ngli mute yigitning e'tirofidir. Zero, irodasi erkin bo'lmagan kimsaning dili ham qul bo'ladi. U o'z xatti-harakatlariga mas'ul emas va u o'z bosgan qadami ezgulikka yoxud yovuzlikka olib boradimi buni ham tugal idrok etolmaydi.

Voqifning fojiasi shundaki, o'zidagi iroda salohiyatini, tabiatidagi himmat, olijanoblik, iste'dodini namoyon etish o'rniga ko'proq o'z erkini yuzaga chiqarish yo'llarini izlab, mulohazaga beriladi xolos. Hikoyadagi oq uy-qamoqxona, bolta, qon-shunchaki timsollar emas, ular-erk kushandalari. Voqif shaxsini sindirgan, iste'dodini bo'g'ib, ko'ngil erkinining zohir bo'lishiga imkon bermagan yovuzlik kuchlari tariqasida namoyon bo'ladi. Odam botinidagi Ezgulik bilan Yovuzlik olishuvida ulardan birining ustunligi Iroda erkinligining parvozi yoxud tanazzuli demakdir. Shunday ekan, Voqif o'z erkini o'zi boy berdi, uning fojiasi ham ana shunda. U o'zini o'zi

¹ Eshonqul N. Xayol tuzog'i // Sharq yulduzi. -1994 -№ 9-10.-B. 153.

yengolmay, zohiri va botinidagi yovuz kuchlar qurboniga aylandi. Shu kabi mulohazalar xususida adib va olim X.Do'stmuhammad shunday yozadi: «Chinakam fojia boshga tashvish tushganida emas, boshga tushgan tashvishdan xolos bo'lish chorasini topa olmaslikni anglab yetishda»².

Sinov-bu insonning ma'naviy evrilish bosqichlari, ruhiy poklanish imkoniyatlaridir. Olloh taolo o'n sakkiz ming olamni boshqargani singari odamning ruhi ham vujudini boshqaradi. Agar ko'ngil qul bo'lsa, bu ruhning aksi, ruh tabiatidagi holatning muayyan bir ko'rinishi xolos.

«...Voqifdan qolgan xotira yoki ikkalalari o'rtasidagi muhabbatning timsoligina emas, balkim do'zaxdan ham yuz karra mudhishroq va ayanchliroq bo'lgan umrdan ma'no va mazmun izlagan odamning hayot haqidagi xulosasi ham ekanligini, Robiyaning o'zi e'tirof etganidek, binoning mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, bedaraklikka yuz tutgan qalbni faqat Yaratgangina muhokama qilishga qodirligini va hammamiz ham ertami-kechmi baribir shu yo'lni tanlayjagimiz va shu xulosani topajagimizni yoqib bo'lingan o'choqdek oftobning so'lg'in nurlari to'kilib turgan, xuddi odamning o'tgan kunlari kabi xazonlar uyulib yotgan o'sha kuz oqshomi juda yaxshi tushunib yetgandim; alohal, o'lim malikasi quvlab yurgan va elkasida uning nafasini his etib borayotgan g'ulu hamda aldovga muhtalo bo'lgan qalbning yo'qlik olamiga chekinishini tushunish unchalik qiyin emas edi... Yo'qlik binosini ko'ra olgan Voqifga tiriklar orasida ham, o'liklar orasida ham joy qolmagan ekan»¹.

Voqif bu dunyodan o'z o'rnini topolmagan, hayotini yo'lga qo'ya bilmagan ekan, u dunyosidan ham norozi. U dunyosiga ham borgisi yo'q va u o'zga uchinchi dunyoga, aniqrog'i, ruhlar dunyosiga bosh olib ketadi. U yer

² Do'stmuhammadov X. Hozirgi o'zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi: Filol. fanlari nomzodi ...dis. -T.: 1995. -B. 77.

¹ Eshonqul N. Xayol tuzog'i // Sharq yulduzi. -1994. -№ 9-10.-B. 153.

yuzida tirik yurgan chogʻida ham oʻzini ruhiyat bandasi deb bilardi va yolgʻiz ruhi bilan suhbatlashar, yolgʻiz ruhining irodasiga boʻysunar edi.

Bu oʻrinda Ruhning mohiyatini aniqlashtirib olish zarurati tugʻiladi. Ruh deganda nimani tushunamiz? Ruhning tabiati nimadan iborat? Ruh-odam vujudidagi obi hayot. Ikkinchidan, Olloh irodasi bilan Inson koʻngliga joylangan hayot quvvati. Uchinchidan, bu Olloh taoloning amri bilan bogʻliq bilgich dunyosi. «...Olloh aytdi: men siz bilmagan narsalarni bilaman. Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarini oʻrgatdi... Keyin aytdi: Sizlarga, Men yeru osmonlarning sirlarini va sizlar oshkor qilgan va yashirgan narsalarni bilaman, demaganmidim»

Demak, foniy va boqiy dunyodan tashqari yana ruh olami-Bilgich dunyosi ham mavjud ekan. Odam ana shu uchinchi dunyoning sohir saodati-obi hayotdan totib, ilhom olib, yashashga shavqi-zavqi ortadi. Demakki, oʻzligini qancha teran anglagan sayin hayot va umr sirlaridan voqif boʻlib boradi.

«Xayol tuzogʻi» hikoyasining qahramoni Voqif fojiasi yana shundaki, u Bilgich dunyosining Yoʻqlik vodiysida chalgʻib, choʻkib ketgan inson. Bu narsa aksariyat hollarda Olloh bilan ijodkor odamlar oʻrtasidagi muloqotda koʻngil bilan bogʻliq kechadi. Xususan, Olloh bilan ijodkor shaxs oʻrtasida kechayotgan ilohiy suhbat chogʻida u koʻngil raʼyiga mukkasidan ketadi. Olloh irodasini negadir hisobga olmay qoʻyadi. Yaʼni Ollohni bir lahza boʻlsa-da unutadi. Voqifning Borliqdan Yoʻqlik chohiga yiqilishi uchun ana shu soniya ham kifoya qiladi. Bu bilgich dunyosida turib, oʻzini-oʻzi bilmaslik, koʻngliga joylangan erkinliklarning mohiyatini unutishlik oqibatidir.

Ana shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi hikoyachiligimizda qahramonlar xarakterining oʻziga xos xususiyatlaridan biri adabiyotshunos N.Rahimjonov taʼkidlaganidek, «hamma gap adibning qanday mavzu va

qahramonlarni tanlamasin, falsafiy-psixologik tahlil etishi va insonning zafari yoki inqirozi orqali tiriklik falsafasini, jamiyat psixologiyasini, umr hikmatini badiiy mujassamlashtira olishi, ma'naviy qadriyatlarni himoya qiluvchi umumbashariy mazmundagi xulosalar chiqara bilishida ekan»¹. Demak, bugungi kunda ham «Shaxs taqdirini ijtimoiy-falsafiy yo'nalishda badiiy tadqiq etish hikoyachilikdagi epik idrok va ifoda madaniyatining yangi ko'rinishidir. Zero, hayotning rang-barang qirralarini to'laqonli ifodalashda mazmundorlik birinchi planga chiqadi. Shaxs taqdiri va jamiyat psixologiyasi esa mazmun teranligining asosidir»². Adabiyotning bu xususiyatiga akademik M.B.Xrapchenko ham alohida urg'u berib, san'atkorning ijodiy tafakkur madaniyati bilan voqelikning rivojlanish xususiyatlari uyg'unligiga diqqat qaratadi. «Realistik adibning ijodiy fantaziyasi, ijtimoiy voqelikning taraqqiyot jarayonlarini qanchalik xolis va chuqur aks ettirishga erishgan taqdirdagina o'zining amaliy, faol vazifasini ado etgan bo'ladi»¹.

«Xayol tuzog'i» hikoyasidagi badiiy tajriba misolida aytish mumkinki, shaxs ruhiyatini, botiniy evrilishlarini aks ettirish orqali jamiyat psixologiyasini gavdalantrish bugungi N.Eshonqul hikoyachiligidagi yetakchi tamoyillardan biri bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bugungi shaxs faoliyatida bashariy qadriyatlar silsilasida o'zi ham oltin halqa ekanligini chuqur anglagan va ana shu mas'uliyat hissi o'laroq odamiylik xususiyatlarini ko'z-ko'z etib, yorug' fazilatlariga ega bo'lishlik oliy bir maqom sifatida badiiy tadqiqotchilikning mehvarini tashkil etayotir. Shaxs taqdiri, tiriklik ko'rguliklari xususidagi faol fikrchanlik hikoyachiligimiz qahramonlari tabiatidagi ijodiylikning nurli qirralari tariqasida gavdalanmoqda.

¹ Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O'zbek tili va adabiyoti.-2001. -№ 6. -B. 10.

² Теория литературы. – М.: Наука, 1964.-С. 101.

¹ Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писатель и развития литературы. - М.: Сов. писатель, 1970. - С.85.

Tuyg'ular sintezi, lirik ehtiros, falsafiy mushohadakorlik insonni badiiy idrok va ifoda etishdagi yetakchi prinsiplar sifatida zohir bo'ldi. Mazkur xususiyatlar yaxlit mujassamlashgan holda insonni tushunish hamda tushuntirishda falsafiy-psixologizm asosiy tamoyilga aylanganidan dalolat beradi.

Nazar Eshonqul hikoyalarida adibni insonning ichki kechinmalari, tuyg'ulari, hissiyotlari, fikrlari ko'proq o'ylantiradi. Uchala hikoyada ham insonning hissiy tafakkuri bosh qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Adib qalb haqiqatini inkishof etish orqali hayot haqiqatini izlaydi. Zero, adolat va go'zallik ham ezgulikka chorlash sifatidagi bashariy qadriyatdir.

Tahlil qilingan hikoyalarda ichki qalb nidolari, monolog, da'vat, iqrar, inkor, singari belgilar lirik ehtiros, publitsistik jo'shqinlik, falsafiy o'ychanlik bilan yaxlit birlikda, sintetik uyg'unlikda o'ziga xos tasvir tabiatini belgilab bermoqda. Mazkur belgilar realistik tasvir madaniyatining nechog'lik katta imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

II BOB

FALSAFIY-PSIXOLOGIK TALQIN

XX asr boshlariga kelib ijtimoiy hayot sur'atlari nihoyat darajada tezlashib ketdi. Bu insonlar dunyoqarashida, fikrlashida ham keskin burilishga olib keldi. Turli ijtimoiy sohalarda bo'lgani kabi adabiyotda ham insonni yangi bir nuqtai nazardan tadqiq etish lozim bo'lib qoldi. Natijada ko'plab shoir va yozuvchilar adabiyotning bosh metodi realizm ko'p jihatdan eskirganligini jamiyatdagi rivojlanishlar hayotni aks ettirishning o'zgacha shakl va yo'llarini taqozo etayotganligini qayd eta boshladilar. Hatto iste'dodli so'z san'atkorlari G'arb adabiyotidagi yetakchi tamoyillarni o'zlashtirish, shunga asosan asarlar yaratish an'anasini boshlab berdi. Badiiy adabiyot o'z taraqqiyotining barcha davrlarida insonni turli tomondan tadqiq etib kelgan. Lekin XX asrning 90-yillaridan e'tiboran o'zbek nasrida biz yuqorida qayd etib o'tgan inson «men»ini tadqiq etishga jiddiy qaralmoqda. Ayniqsa, nasrda qahramonni muhit, jamiyat va siyosat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki takrorlanmas, o'ziga xos olam sifatida o'rganishga e'tibor kuchaydi. Jumladan, o'zbek nasrida ham qahramon «men»ini tasvirlash asosiy planga olib chiqilmoqda, uning tafakkur jarayonini tadqiq etish kuzatilmoqda. Nazar Eshonqul asarlarida realistik tasvir noan'anaviylik bilan sintezlashib yuborilganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu borada uning ijodiga M.Prust, F.Kafka, Sartr singari G'arb ijodkorlari ta'siri bo'lganligini inkor qilish qiyin bo'lsa kerak. Chunki yozuvchining o'zi alohida qayd qilganidek, «Hazrat Navoiy zavq bergani kabi bizning tasavvurimizda o'ta modernchi bo'lgan Kafka, Kamyu, Bekkerlar ham menga san'at nuqtai nazaridan zavq beradi».¹

¹ Nazar Eshonqul. Samoviy zavq lazzati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003. 14-fevral.

Bundan ko‘rinyaptiki, adib ijodida G‘arb va Sharq adabiyotidagi mavjud yetakchi tamoyillar uzviy birlashib bormoqdaki, bu esa qahramon yaratish, obrazlar olamini talqin etishda o‘ziga xos jarayonlarni yuzaga chiqarmoqda. Inson murakkab qurilma, uni badiiy adabiyot yillar davomida talqin etadi. Turli xil xislatlarini inkishof etmoqda va etaveradi.

Nazar Eshonqulning «Shamolni tutib bo‘lmaydi», «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyalarida ham ma‘naviy-axloqiy masalalar yetakchilik qiladi. «Shamolni tutib bo‘lmaydi» hikoyasida ushbu o‘zak asosining nozik bir qirradi-inson sha‘ni, Xotira qadri masalasi qalamga olingan. Inson xotirasi, sha‘ni va qadri-bu bebaho ma‘naviy qadriyat. Uni behurmat qilish, oyoq ostida tepkilash, qora tuproqqa qorishdek badkirdorlik eng ayanchli qabih axloqsizlikdir. Nazar Eshonqul hikoyasida inson xotirasi-sha‘ni masalasi keskin ikki qutbga bo‘lingan komil odamiylik va yuz tuban ma‘naviy tubanlik, axloqsizlik o‘rtasidagi kurash jarayonida aks ettiriladi.

«Bayna momo ellik yilga yaqin yolg‘izlik davrini ayvondagi ustunlarga suyanib o‘tkazdi. U eri va o‘g‘lining judolik azobi qiynagan paytlar shu ustunlarni quchgancha yig‘lardi»¹.

Eri Rayim polvon bilan endigina mo‘ylovi sabza urgan o‘g‘lini Zamon otboqar otib o‘ldiradi. XX asrning 30-yillari sho‘roviy-qizillar etagini tutib ketgan Zamon otboqar o‘ziga to‘q mol-mulk egasi bo‘lgan, o‘z yurti va tuprog‘ini bosqinchi qizillar zug‘umidan himoya qilishga otlangan Rayim polvon o‘limidan keyin qo‘radagi podasi-yu otlarini haydab ketadi. «Zamon otboqar otlarni quvib ketarkan, bir yo‘la otasi bilan uning qasosini olishi mumkin bo‘lgan o‘g‘lini ham otib tashlaganidan xursand edi-u shu ketishi bilan qishloqning ko‘p narsasini haydab ketdi-endi qishloq birdan minorasi qulagan shahardek g‘arib va notavon ko‘rinardi. O‘n besh yillar so‘ng Zamon

¹ Eshonqul N. Shamolni tutib bo‘lmaydi // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati.- 1996.-26 iyul. (Qolgan misollar ham shu manbadan olinadi).

otboqar qishloqqa qaytib kelganda qishloqdan fayz ketib, odamlar yana ham ojiz va hurkak bo‘lib qolgandilar» (o‘sha manba, 3-bet).

Adib Bayna momo ichki dunyosini, xususan, uydan hovliga chiqqan mahali devor ortida pisib turib erini otib o‘ldirgan, o‘g‘lining yosh umrini juvonmarg qilgan Zamon otboqarga nisbatan qahr-nafratini, ko‘nglida kechayotgan tuyg‘ular junbushining suratlarini chizadi. Bayna momo qarib qolgan bo‘lsa-da, ko‘zlari qahrli, nafrat to‘la yonadi. Adib hayotiy detallar, tafsilotlar zimmasiga katta ma’nolar yuklaydi. Qahramon ruhiyatidagi to‘lqinlar shiddatini ko‘rsatish bilan barobar yuksak ma’naviy-axloqiy jihatlarini ham asoslashga erishadi. Zulm-zo‘ravonlik asosiga qurilgan jamiyat odamlarni bir-biriga mehrsiz, oqibatsiz qilib qo‘yadi. Zug‘um odamlarni hurkak, hadik-havotirli bo‘lishga majbur etadi. Oddiy cho‘pni ko‘rsa ham egilib salom beradigan, o‘z qadri-izzatini yo‘qotgan qo‘rqoq, hurkovich kimsalarga aylantirib qo‘yadi.

Bu yerda zulm-istibdodga asoslangan jamiyatning axloqsizligini hayotiy voqelik fonida shaxs taqdiri bilan bog‘liqlikda aks ettirish psixologik tahlilning ijtimoiy ma’no salmog‘ini belgilayotir. Aytish mumkinki, hikoyadagi ma’naviy-axloqiy masala sho‘ro davri axloqi, zamon axloqi darajasida ifodalanayotir. Insonni tirikligida e‘zoz-ikrom eta olmagan odamlar o‘lgandan keyin ham xotirasini qadrlashga ojiz. Zulm va zug‘um qishloq odamlarini shunaqa notavon ko‘rguliklarga giriftor etgan. O‘z sha’ni-hurmatini bilmagan kimsa o‘zgalarning xotirasini ham hurmatlashga ojiz va noloyiqdir. Bu insoniyat uchun juda katta fojia hisoblanadi.

Hayot materialining yangicha badiiy-talqini undan yangicha ma’nolar uqishimizga ko‘mak beradi. Xususan, Bayna momoning eri va o‘g‘li xotirasiga bo‘lgan adoqsiz e‘zoz-hurmati, tabiatidagi ulug‘vorlik, beqiyos ruhiy go‘zallikning bir ko‘rinishi sifatida gavdalanadi. Ana shu holat aksar qishloqdoshlari tabiatidagi qo‘rqoqlikni, ruhiy ojizlikni qoralash asnolarida

dalillanadi. Bayna momo shaxsiyatidagi ma'naviy ko'rkamlik, xotira hurmati qishloqdoshlarining fe'l-faoliyatidagi qusurlar, illatlar fonida yanada ulug'vorlik kasb etadi. Xususan, «Qishloqda askarlardan hech kim ko'rinmas, odamlar go'yo suvga cho'kkanday g'oyib bo'lgan, faqat derazalarga tortilgan qora pardalar bu mudhish jaholatga loqayd va befarq boqib turardi. Bayna momo tersotaliklarni kechira olmadi. Ko'kragi ilmatshik bo'lgan o'g'liga qarata Zamon otboqar yana bir necha bor o'q uzarkan, u madad izlab qora pardalarga bir-bir ko'z tikdi. Biroq u yerdan sovuq sukutdan boshqa hech narsa ko'rinmas, zulmatga cho'kkan tuynuklar bu misli ko'rinmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi» (o'sha manba, 3-bet).

Tasvirdagi har bir detal, holat va manzaralarning o'z ma'nosi bor. Shu boisdan ham adib biron-bir kartina yaratishda tafsilotga berilgan, deya da'vo qilolmaysiz. Aksincha, detallar va holatlar hayotiy kechinmalardan, mushohadalardan sizib chiqayotir. Bu borada muallif tanlagan ob'ektiv, xolis tasvir o'quvchiga ham fikrlash uchun keng imkoniyatlar tug'diradi. Tasvirlanayotgan hayot-voqelik lavhalaridan o'ziga ibrat bo'ladigan saboqlar oladi. Bu hol tuyg'ular va tafakkur tarbiyasi tarzida voqe bo'layotir. O'quvchi bundan o'zining ma'naviy-intellektual sajiyasiga muvofiq fikr oladi, xulosalar chiqaradi.

Adib Bayna momo tuyg'u-kechinmalarining suratini chizib, qalbini ochib qo'ya qolmaydi. Eng muhimi, tuyg'ular tarhi, kechinmalar hayoti to'g'risida mushohadalar yuritadi va bizni ham ana shu o'y-fikrlarga sherik qiladi. Bayna momo qismati umrining ma'nosi, tiriklikning mohiyati, oniylik va abadiylik haqida o'yga toldiradi. Biz boqiylik haqida, o'tkinchi damlardan qolajak tiniq va yorug' xotiralar to'g'risida, mangulikni da'vo qiluvchi mazmunli lahzalari xususida ko'p bor mulohazalar yuritamiz. Boqiylik-bu insonning muayyan maqsadlar, ko'ngil nolalari asosiga qurilgan mazmunli

umridir, deging keladi. Shu ma'noda Nazar Eshonqul hikoyasida odamlarning hayotdagi, jamiyatdagi o'rni, tirikligining mohiyati xususidagi yaxlit va bus-butun tasavvur-tushunchalar adibning shaxs konseptsiyasi va umuminsoniylikka xos bo'lgan badiiy tafakkur tabiatini hamda ijodiy individualligini belgilab berayotir.

Ushbu hikoya xususida mulohaza yuritar ekan, adabiyotshunos U.Normatov asar mohiyatini teran his qilgan holda shunday yozadi: «Yozuvchi asar qahramoni Bayna momoning uzoq davom etgan fojeiy, motamsaro, ayni paytda mardona hayot yo'lini o'ziga xos yo'sin-ohangda hikoya qiladi... Momo qismati bilan bog'liq xarakterli voqealar, chunonchi u bilan qishloq ahli, olomon orasidagi ziddiyat bir-ikki detallar, shtrixlar ixcham lavhalar orqali eslatiladi, hatto hikoyadagi eng jiddiy to'qnashuv-olishuv-momoning eri va o'g'li qotili Zamon otboqardan qasos olishi, uni chavaqlab, qonli barmoqlaridan judo etish voqeasi sahna ortida yuz beradi; bu mudhish voqeani muallif imo-ishoralar detallar orqali ayon etadi»¹.

«Shamolni tutib bo'lmaydi» asarida adibning ijtimoiy-estetik pozitsiyasi bilan bir qator ma'naviy-axloqiy nuqtai nazari ham ustuvor yo'nalish kasb etgan. Nazar Eshonqul talqinidagi Bayna momo xarakteri shunchalar yorqinki, uning zimmasiga yuklangan axloqiy ma'noga ko'ra, u ijtimoiy-ma'naviy qadriyat sifatida qabul qilinadi va o'rganiladi. Zero, o'tmish ham, bugungi kunimiz ham biz uchun saboq. Ibrat ma'nolari esa hamisha odamlar ma'naviyatini komillik xislatlari ila ziynatlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Negaki, faqat odamlar fe'l-atvoridagi xislat-fazilatlargina emas, xiyonatlar, razolatlar, zulm-istibdodlar, qo'rquv-hadiklar dag'dag'asida sichqonning inini ming tangaga sotib olishlari ham odamlar uchun saboqdir. Fikrni charxlashga, ko'ngilni oydin-ma'rifatli etishga xizmat qilgan shu taxlit

¹Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar.-T.: Ma'naviyat, 2000.-B. 40.

ma'naviy-axloqiy saboqlar, ibratlar va xulosalar o'quvchi ruhiyatida nurli fazilatlar tariqasida shakllanishini asoslaydi. Bu masalaning bir jihati.

Ikkinchidan, «Ozodlik», «Shamolni tutib bo'lmaydi» hikoyalaridagi badiiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, insonni ko'rish, tushunish, hamda tushuntirish borasida realistik tasvir madaniyati nihoyatda keng imkoniyatlarga ega ekan. Ramzli tasvirlar orqali keng qamrovli teran fikr ayta bilish salohiyati ham ana shunday realistik ifoda madaniyatining muhim shakllaridan biridir. Nazar Eshonqul ijodiy tajribasi buning yorqin tasdig'idir.

Uchinchidan, Bayna momo obrazi nafaqat N.Eshonqul ijodida, umuman, keyingi yillar hikoyachiligida insonni badiiy aks ettirish prinsiplari nechog'lik kengayganidan, chuqurlashganidan dalolat beradi. Mazkur sifat o'zgarishi psixologik tahlil madaniyati ko'ngil tarixini yaratish evaziga hosil bo'layotir. Xususan, Bayna momo eri Rayim polvon va o'g'lini otib o'ldirgan Zamon otboqardan o'ch olishni ko'ngliga tugib qo'yadi. Hamqishloq erkaklar bu nohaqlikka, bedodlikka intiqom bilan javob bera bilmagach, bu mushkulotni u ayol boshi bilan o'z zimmasiga oladi. U ko'ngil saltanatiga hech kimning, hatto mehribonchilik ko'rsatgandek royishlari ila dahl etishini ham istamaydi. «Uni hatto nigohlardan ham ehtiyot qiladi». «... U endi yolg'on dunyoda yolg'iz va qarovsiz qolgandi? Lekin o'zining ojizligini hech qachon bildirmas, o'zidan ko'ngil so'raganlarni yomon ko'rar, go'yo hayoti hech kim qiyo boqa olmaydigan dahlsiz saltanatdek u yoqqa kishini hatto so'zi bilan ham kirishga yo'l qo'ymasdi» (o'sha manba, 3-bet).

Bayna momo ruhiyatidagi o'zgarishlar, nafrat va g'azab, intiqom tuyg'ulari suv yuzasidagi ko'piklar misol ko'rinib, bo'ronlar shiddati va to's-to'poloni singari sezilmaydi. U daryo tubidagi sirti tinch, botini serg'uluv oqimni eslatadi. Bayna momo ko'nglidagi tebranishlar, fikriyatidagi qat'iyat o'ch olish tuyg'usining qat'iy intiqomi sifatida ongi-shuurida kechgan g'alayonlar suratini chizish asnosida kuzatiladi. Adib tasviridagi Ona

o‘zining ikki jihati bilan, ya’ni ham fikriyati, ham ruhiyati bilan ifoda ob’ektiga aylanayotir. Bu N.Eshonqul hikoyasidagi Ona tasvirining zohiriy belgilaridir. Uning botiniy mazmunini nimalar tashkil etadi?

Adibning nafaqat «Shamolni tutib bo‘lmaydi», shuningdek, «Tobut», «Xaroba shahar surati», «Ozod qushlar», «Muolaja», «Zulmat saltanatiga sayohat» kabi hikoyalarida ham murakkab psixologik tahlil yetakchilik qiladi. Birgina Bayna momo misolida kuzatilayotganidek, ulardagi qahramonlar o‘zbek nasrida yangi obrazlardir.

N.Eshonqulni shaxs tabiatidagi ikki qutb tasviri ko‘proq qiziqtiradi. Xususan, Bayna momo sho‘ro voqeligi bilan bog‘liq ravishda qishloq hayotiga kirib kelgan yangiliklarni, o‘zgarishlarni ko‘zi ko‘rib tursa ham, qalban qabul qilmaydi. Ular momo tabiatiga, ruhiyatiga singishmaydi. Boisi, ana shu sho‘ro tuzumi uning yorug‘ umrini qorong‘u go‘ristonga aylantirgan. U jisman tirik bo‘lsa-da, shahid ketgan eri Rayim polvon va o‘g‘li bilan ruhan hamnafas. Ularning sha’ni va qadri, yorug‘ xotirasi Bayna momoni oyoqda tutib turibdi. U tirik bo‘lsa-da, ruhan o‘liklar bilan birga yashaydi. Shu boisdan ham uni bu yorug‘ olamdagi hech narsa qiziqdirmaydi. Uning ko‘ngliga tugib qo‘ygan qishloqdoshlaridan hech kim xayolining ko‘chasiga ham keltirmagan, yetti uxlab tushiga kirmagan xufiya niyati bor. Bu eri bilan o‘g‘lining bevaqt zavol topgan umri uchun Zamon otboqardan o‘ch olish, ya’ni xotira intiqomi. Axir qishlog‘ida nohaqlikka, zo‘ravonlikka, adolatsizlikka qarshi kurasha oladigan erkak zoti topilmasa, u ayol boshi bilan haqiqatni tiklashga majbur.

Bayna momo ruhiyatidagi ikki qutb tiriklik bilan o‘lim oralig‘idagi umr manzarasini chizish, kayfiyat kechinmalari ranglarini ko‘rsatish hikoyada ustuvor mazmun tashkil etadi. Har bir detal, har bir holat ana shu ruhiyat ummonida kechinmalar shaklida kechayotgan azobli to‘fonlar holatini suratlantirishga qaratilgan. «Yillar bilan birga hamma narsa o‘zgarar, faqat

Bayna momogina uni sezmas, go‘yo uning uchun vaqt o‘sha holicha qotib qolgandek, uni o‘sha ellik yil oldingi eri va o‘g‘lining o‘ligini bolshovoy askarlar tepkilab ko‘mishgan ustun oldidan topish mumkin edi» (o‘sha manba, 3-bet).

Hikoyada jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar konkret holatlarni ko‘rsatish orqali kuzatiladi. Ana shu voqelikdagi yangiliklar mohiyatini badiiy holatlar, lavhalar yaratish asnosida shaxs qalbiga murojaat etiladi. Shu ma’noda, N.Eshonqul tasviridagi Bayna momoning jamiyatga, tabiatga atrof-tevaragiga munosabatini o‘rganish xarakterlidir.

Biz yaqin-yaqinlargacha jamiyat insonni tarbiyalaydi, kamol toptiradi, o‘z kelajagidan umidvorlikni shakllantiradi, deb keldik. Lekin hayot buning butkul aksi bo‘lishi ham mumkin ekan. Bayna momo taqdiri bunga yaqqol misoldir. Jamiyat insonni tiriklay go‘rga mahkum etishi ham mumkin ekan. Bolshovoylar Bayna momo uchun o‘lim-yo‘qlik timsoliga aylanadi. Shu boisdan hatto tabiatdagi jonlanishlar ham momo ko‘ngliga «qilt» etgudek ta’sir o‘tkazolmaydi. Bahoriy yasharish, yangilanish, yoz jaziramasi, kuzning ilmiliq havosi, qish ayozlari Bayna momo uchun birdek. Aslo ma’nisiz, o‘tkinchi damlar xolos. Tabiatdagi yorqin bo‘yoqlar jilvasi hayot quvonchlaridan, yashash sururidan guvohlik berayotir. Lekin ular Bayna momo ruhiyatidagi evrilishlarga hamohang emas. Illo ayol hayotining tasviri o‘z tirikligidan, o‘z turmushidan mamnunlik, ertangi kundan ishonch tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan emas.

«Shamolni tutib bo‘lmaydi» hikoyasida kuzatilganidek, insonni o‘rganish va botinan kashf etish borasidagi tajriba ham e’tiborli. Adib Bayna momo ruhiy holatlarining psixologiyasini yaratar ekan, bu borada uning fikrlarini hamda ko‘nglidan kechgan o‘y-mushohadalarning suratlarini chizish alohida bo‘rtib turadi.

Ko‘rinadiki, Bayna momo ruhiy holatlarini kashf etish N.Eshonqul uslubining o‘ziga xosligini ham, badiiy tafakkurining tabiatini ham asoslayotir. Tabiatdagi o‘zgarishlar-ko‘karish, ochilish, barq urish, yashnoq yashillikka burkanish, garchand o‘tkinchi asnolar bo‘lsa-da, ular Bayna momo ko‘nglidagi o‘tkinchi hissiyotlarni anglatmaydi. Dilining tub-tubidagi tuyg‘ulariga oshno bo‘lolmaydi. Garchand tabiat holatlari o‘zining o‘tkinchi daqiqalaridan notinch esa-da, momo qalbi befarq, bezovta emas. Negaki, tabiat holatlari bilan ayolning psixologik kayfiyatlari o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi vaqtinchalik o‘tkinchi bir hodisadir. Adibning mahorati shundaki, tabiat ranglari momo turmushidagi, qalbidagi yashirin bo‘yoqlar ma’nosini aks ettirishi hisobiga o‘zining o‘tkinchi asnolariga azaliylik, doimiylik ato etayapti. Momoning real voqelikdan orttirgan g‘amnok, o‘ksik tuyg‘ulari o‘zining fikrga yo‘g‘rilgan kechinmalari bilan tabiatdagi o‘tkinchi asnolarga azaliylik bag‘ishlayapti. O‘z iroda kuchi va sabot-qat’iyati bilan tabiat holatlariga sirti sokin, botini serg‘uluv tagdor va alamnok osoyishtalik ato etayapti. Bu musibatli yurakning adib kashf etayotgan holatlaridir.

Nazar Eshonqulning o‘zi ushbu holatni quyidagicha izohlaydi: «To‘g‘ri-adabiyot xayolot dunyosi, quruvchi g‘ishtdan uy quradi, yozuvchi xayoldan dunyo yaratadi. Dard, og‘riq, musibat, iztirob, bilim ana shu xayolning mustahkam tirgaklari. Bularning birontasini sug‘urib olsangiz, adabiyot ag‘darilib tushadi. Iste’dod ham asli xayol bilan hayotni omuxtalashtirish, bir-biriga yaqinlashtirish va bu ikkisidan yangi dunyo yarata olish mahoratidir»¹. Bayna momo uchun birgina hayot bor. Bu-xotira, ya’ni eri bilan o‘g‘lining yodi. Ana shu xayolot tasviri keyingi yillar o‘zbek nasrida butkul yangi bir yo‘nalish samarasi, qutlug‘ namunasidir. Jamiyatdagi o‘zgarishlar, tabiatdagi yangilanishlar Bayna momo turmushiga, umriga o‘zgacha mazmun olib kirayotgani yo‘q. Momo bolshovoylar jamiyatini

¹ Eshonqul N. Ijod qudrat, go‘zallik, ilohiyotga daxldorlikdir // Milliy tiklanish. 1998. 19-may.

prinsipial inkor etayapti, unga ro'yxushlik ko'rsatib, qabul qilayotgani yo'q. Ular o'rtasida na moddiy, na ma'naviy bog'liqlik vujudga kelayotir.

Muallif hikoyasida Ona qiyofasini badiiy gavdalandirishdagi realistik tasvir keng va chuqur. Xususan, Bayna momo ko'nglida kechayotgan tuyg'ular holatini suratlantirish va uning fikr-mushohadalardan iborat kechinmalar manzarasini yaratish realistik ifodaning o'ziga xos shaklidir. N.Eshonqul hikoyasidagi Bayna momo sho'ro davri nasridagi aksar qahramonlar singari faol shaxs emas. U jamiyatdagi o'zgarishlarga, xalq hayotidagi yangilanishlarga o'z munosabatini bildiruvchi, o'z faoliyati bilan tirikligini go'zalliklar bilan burkovchi ijtimoiy shaxs ham emas. Unga o'z hayotini yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati bilan boqiyashtirishga safarbar o'ktam ayol xususiyatlari butkul yot. U biz aksar asarlarda o'rganib qolganimiz, ma'nan va intellektual jihatdan yetuk qiyofasi bilan ham ko'zga tashlanmaydi. Momo o'zining jamiyat hayoti, xalq taqdiri va atrof-tevarigidan kechayotgan voqelik bilan na ruhan, na jisman uzviy robitalariga ega emas, ular momoning ko'ngil ko'chalariga sig'maydi ham.

Hikoyadagi realistik ifodaning o'ziga xos tabiati shundan iboratki, Bayna momo ruhiyatidagi o'zgarishlar, ya'ni tuyg'ular dinamikasi, kechinmalar takomili holatlarning suratiga aylantirilgan. Ma'naviyatidagi, ong-shuuridagi tuyg'ular tadriji, ya'ni intiqom tarzida shakllanayotgan nafrat-iztiroblari badiiy detallarga singdirib yuborilgan.

«Bayna momo har kecha ko'z yoshlari bilan to'lgan qayiqda yillar qoyalari orasida qolib ketgan eri bilan o'g'lining ilma-teshik bo'lgan murdasi va Zamon otboqarning muzaffar qamchisi yotgan qonli halqob bilan to'lgan ayvonga suzib borar, ertalablari ho'l bo'lib ketgan yostig'ini xuddi qadim ajdodlarining unut bo'lgan yaloviday uyining oldidagi oradan yillar o'tgach, uyini buzayotganlar qo'porib tashlashga kuchlari yetmagach, kovlab olishga majbur bo'lgan baland tolga osib oftobda quritardi. Qish paytlari g'amlab

qo‘ygan o‘tini yetmagan kunlari u ko‘rpaga oyog‘ini tiqqancha xotirasiga isinib jon saqlardi», yoki «Bayna momo qishloqdoshlariga ko‘z-ko‘z qilmoqchiday va bu uyning erkagi va oriyati o‘lmagan deya ta’kidlayotganday eri va o‘g‘lining polvonlik yaktaklarini har oyning oxirida shusiz ham hammaning ko‘ziga tashlanib turadigan uyining shappotchayiga osib qo‘yardi: yaktaklar ham bora-bora nafrat to‘la changalga dosh berolmadi: Zamon qassob o‘limidan bir kun oldin yaktaklar torda uvada-uvada bo‘lib osilib turar, ular endi kiyimdan ko‘ra ko‘proq qabrlar ustiga ilib qo‘yadigan laxtakka o‘xshab qolgandi» (o‘sha manba, 3-bet).

Umuman, N.Eshonqul izlanishlarida ramziy va falsafiy mazmundorlik adib ijodining o‘ziga xos, individualligini belgilaydi. Zero, «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasi ham ramziylikka asoslangan, badiiy tafakkur tabiatiga ko‘ra, «Maymun yetaklagan odam» asariga o‘xshash. Faqat uning bosh qahramoni M. ismli adib. Har ikki hikoyani yagona falsafiy-axloqiy konsepsiya birlashtirib turadi. Nazar Eshonqul shaxsning ko‘ngil kechinmalariga murojaat etarkan, umr sahifalarini birma-bir varaqlash orqali ma’naviy intellektual boyliklarini, odamiylik xislat-fazilatlari bilan g‘ayriinsoniy illatlari ham yonma-yon voqe bo‘lishini, o‘zaro kurashib yashashini ko‘rsatishga alohida diqqat qiladi.

«Maymun yetaklagan odam» hikoyasida rassom chol psixologiyasini ochishda o‘zi chizgan suratlardagi hayot manzaralari orqali gavdalantirishga erishgan bo‘lsa, «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasida M. ismli yozuvchining ruhiyati, ma’naviy hayot sahifalari yaratgan asarlari mazmuniga murojaat vositasida jonlantiriladi. Shu ma’noda, ushbu hikoyada ham inson kontsepsiyasining dinamikasini kuzatish mumkin. Bu narsani muayyan sxemaga yoki qolipga solib bo‘lmaydi. U inson tirikligi singari ibtido-yu intihoga ega.

Mashhur adib M. ham yolg'iz yashaydi. Keyingi o'n-o'n besh yil ichida hech kim bilan sirlashmaydi. Jurnalist qiyofasidagi lirik personaj M. ijodiy dunyosiga safar qilish, ijodi haqida suhbatlashish niyatida uning uyiga keladi.

«M. tamaki va yana qandaydir qo'lansa hidlar o'rnashib qolgan to'shakda cho'zilib yotardi; tinmay tamaki tutatar va po'k-po'k yo'talardi. Xonasi ham xuddi hayoti kabi palapartish edi. Men tozalanmagan stolni, isqirt to'shakni, derazadan ko'ra tuynukni eslatadigan romlarni, o'qilmaganiga ham allazamonlar bo'lgan chang bosgan kitoblarni ko'zdan kechirar ekanman, har bir odam o'ziga munosib boshpana tanlaydi, deb o'yladim»¹. M. ning ijod dunyosi bu hayotda har bir narsadan tushkunlik va umidsizlik izlayverib, o'zi ham tushkunlikning bir parchasiga aylanib qolgan, hayotning mudhishligini ixlos, shavq bilan tasvirlagan zulmat olamidir. M. ning asarlarida nurdan ko'ra soyalar, ezgulikdan ko'ra razolat, qabohat, yaxshilikdan ko'ra yovuzlik yayrab-yashnab, emin-erkin yashaydi. Bir hikoya ichida ko'p odamlarning bir-biriga sira o'xshamagan qiyofalarini chizadi. Xarakterlarning qirralarini juda ixcham va lo'nda tasvirlar bilan yarqiratib ochib yuboradi. Ko'z o'ngimizda ilgari boshqa hech qayerda uchramagan g'alati tabiatli kishilar obrazlari namoyon bo'ladi.

Nazar Eshonqul hikoyasida inson o'z ko'nglining egasi bo'lmas ekan, har qanday sharoitda ham u qo'rquvchi mute bo'lib qolaveradi. O'z-o'ziga ishonchsizlik, o'z tuyg'ulariga, fikr-o'ylariga mas'ul bo'lmaslik, nafrat va muhabbat orasida qalqib turgan dunyodan yorug'likka ishonchsizlik, qorong'ulikka ko'nikish M. ning o'z erkini boy bergan zulmat dunyosiga yetaklab kelgan. Umrini tashlandiq qabr singari sukunatga duchor etgan, xudbinlik-g'ayriinsoniylik ekanligini, u oliyjanoblik, yaxshilik bilan aslo chiqishib ketolmasligini, birga yashay olmasligini, bu esa shaxsni tanazzulga mahkum etishini chuqur ochib bergan. Bu borada N.Eshonqul tanlagan usul-

¹ Eshonqul N. Zulmat saltanatiga sayohat // Maymun yetaklagan odam. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.-B. 161.

adib asarlarida yaratilgan N. ismli qiz Q. ismli personajlar ruhiyatini kuzatish orqali M. ning ma'naviyati sahifalari birma-bir ochila boradi. Ana shu usul M. ning qo'rquvga («qo'rquv odamlarni boshqaradi», deb biladi) asoslangan mutelikda ko'zi ochilgan, mutelik qobig'iga o'ralgan va umr shomida ham mutelik og'ir xo'rsiniqqa aylangan hayot sahifalarini birma-bir varaqlash imkonini beradi. «...U o'zini o'rab turgan bu qiyofasiz olamga qiyofa berish uchun uni daf'atan shunchalar zulmatga burkagandiki, oqibatda bu zulmat uning qasosga to'la o'kirigiga aylangan edi» (o'sha manba, 162-bet), «...M. ning uzuq-yuluq jumalari kabi xaroba uylar orasidan ketib borardik. Bu vayronalikdan M. ning umr hidi kelar-muqarrar tanazzuldan darak berardi» (o'sha manba, 165-bet).

Ko'rinadiki, «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasida ham hid va shu'la obrazlari ramziylik tabiatiga ko'ra chuqur ijtimoiy mazmun tashib kelayotir. U tanazzulga yuz tutgan, butkul umri qo'rquv va mutelikda kechgan M. hayotini, badbo'y tirikligini anglatish bilan barobar qo'rquv saltanatiga qurilgan jamiyat odamlar taqdirini nes-nobud qilishini, ongi-shuurini boshqarishini ham anglatib turadi. Hid va shu'la obrazlari yaxlit uyg'unlikda Nazar Eshonqulning mustaqillik davri hikoyachiligida badiiy talqin etilayotgan qo'rquv va baxtsizlik, shaxs erki va ko'ngil muteligi, fikr qulligi xususida umuminsoniy mazmun va mohiyatga ega bo'lgan keng mulohazalar yuritish imkonini beradi. Aytish mumkinki, hid va shu'la kabi obrazlar adibning dastxatiga aylanib borayotir. Bu hol yolg'iz Nazar Eshonqul ijodiy individualligini belgilab beruvchi xususiyatlarga egadir. Xususan, hid, shu'la ramzlari vositasida shaxs qismatini, taqdiri sahifalarini oydinlashtirishga alohida urg'u beriladi. Zero, zulmat saltanati bu-M. ning badbo'y hid anqib yotgan, tanazzulga yuz tutgan umrining lahzalari, daqiqalari, damlari silsilasidan iborat bo'lgan qorong'ulik. «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida chirkin hid umrning yaxlit bir holati, qo'rquv, umidsizlik-ishonchsizlik asosiga qurilgan tiriklikning tabiiy bir silsilasi sifatida talqin etilgan edi. Endi «Zulmat saltanatiga sayohat» asarida esa

ushbu ramzlarning tashigan ma'no qirralari ko'lamdor va terandir. Qahramonlar ko'zidan balqigan shu'la umrlarni uzaytirishga, inson tirikligini olijanoblik, ezgulik, insoniylik ma'nolariga yo'g'rishga da'vat kuchli. Lekin ko'nglida yashiringan qo'rquv tuyg'usi, ko'ngil muteligi M. taqdirini zulmat botqog'iga botirgan.

Nazar Eshonqulning keyingi yillar izlanishlarida insonni tushunish hamda tushuntirish borasida timsolli psixologizm yetakchi umumiy tamoyilga aylanganligini, shaxs ichki dunyosini aks ettirishda ramzlarga qurilgan badiiy tafakkur tabiati adib ijodiy individualligini belgilab berayotganligini ta'kidlash joizdir. Zero, N.Eshonqul hikoyalarida inson ruhiyatini aks ettirish borasida yuzaga kelgan mushtarak motivlar, avvalo, ularning bir-biriga ijodiy ta'siri, ob'ektiv voqelik taqozosi hamda adabiy jarayonning kechish tarzi bilan izohlanadi. 80-90-yillar o'zbek hikoyachiligidagi tuyg'ular realizmi psixologik tahlil madaniyatida nechog'lik ustuvor mavqe kasb etgan bo'lsa, mustaqillik davri hikoyalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

«Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasida kuzatilganidek, ramzli obrazlilik lirik personaj sifatida asarda ishtirok etayotgan muallif nuqtai nazari, individual nutqi orqali yoritilgan. Bu borada ramzli obrazlarning zohiriy belgilarini gavdalantirish bilan kifoyalanib qolinmagan. Hikoyada muallif Hid, Shu'la, Qorong'ulik, Qo'rquv singari ramzlar tabiatini ochish uchun M. ismli adib, N. ismli qiz, Q. ismli qahramon psixologiyasini chuqur yoritishga xizmat qiluvchi hayotiy ziddiyatlarga, holatlar ruhiyatini chizishga, keskinliklar kayfiyatini yaratishga alohida e'tibor qiladi. Hikoyadagi badiiy tafakkur tarziga ko'ra hayot faktlarini qahramonlar turmush tajribalari asosida umumlashtirishni taqozo etgan. Faqat hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda timsollar tuyg'ular realizmiga erishishni ijtimoiy-falsafiy umumlashma xulosalar chiqarishni asoslagan, yuzaga keltirgan. Yozuvchiga holatlar, kayfiyatlar, ramzlar psixologiyasini yaratishida tuyg'ular realizmi, kechinmalar haqiqati asos bo'lib xizmat qilgan.

«Maymun yetaklagan odam» hikoyasidagi rassom chol, «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasidagi M. ismli adib, adabiy personajlardan N. ismli qiz, Q. ismli qahramon xarakterini yaratishda adib kechinmalar psixologiyasini gavdalantirish yoʻlidan boradi. Mutelik va itoatgoʻylik, jurʼatsizlik inson ongi-yu ruhini, vujudini chirmab olgan chirkin zalolat zulmning, qorongʻulikning ayanchli bir koʻrinishidir. Odam erkin boʻlishi va umrini poshnalar tagida emas, yorugʻlikda kechirishi uchun har bir inson, xoh u adib yoki rassom boʻladimi, ongidagi kishanlarni, ruhiyatidagi zanjirlarni parchalashi, ulardan xalos boʻlishi lozim ekan, degan fikr ilgari suriladi. Inson chinakamiga ozod boʻlishi, emin-erkin yashashi uchun hurriyatga tashnalikning oʻzi yetarli emas. Qorongʻulikni qargʻab oʻtish, zulm zalolatni yomonlash, ertangi kun saroblarini anglamay aldanib qoldim, deya afsus-nadomatlar yogʻida qovrilish masala mohiyatini oydinlashtirmaydi. Qorongʻulikni-qora, zulmni-yomon, deyish bilan inson erkin boʻla olmaydi. Ana shu chirkin kuchlarga, yovuzliklarga, zulmga qarshi bosh koʻtarmas ekan, uning intilgan hurriyati sarob boʻlib qolaveradi.

N.Eshonqul izlanishlarida ramziy va falsafiy mazmundorlik adib ijodining oʻziga xos, individualligini belgilaydi. Darhaqiqat, yozuvchi X.Doʻstmuhammad alohida taʼkidlaganidek, «N.Eshonqulning deyarli barcha asarlarida qoʻlansa is qahramonning ruhiy holatini boʻrttirib tasvirlashda oʻziga xos vositaga aylanadi. Ehtimol, ayrim oʻrinlarda yozuvchi qora boʻyoqni haddan tashqari quyuqlashtirib yuborgandek tuyular, lekin bu tasodifiy emas, Nazarning tasvirlashida tasodifiylik, noaniqlik, nokerak tashbehlar uchramaydi, zero, u soʻzni nihoyatda nozik his etadi, boshqacha aytganda N.Eshonqul oʻz soʻziga javob beradigan yozuvchilar sirasiga kiradi».¹

N.Eshonqul hikoyalaridagi oʻziga xos xususiyatlaridan biriga munosabat bildirar ekan, adabiyotshunos U.Normatov shunday yozadi: «N.Eshonqulning

¹ Doʻstmuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari // N.Eshonqul. Mamun yetaklagan odam. –T.: Yangi asr avlodi, 2004. –B. 4.

bu tur hikoyalarida qahramonlarning nomi yo‘q-ular faqat «U» yoki hayotda amali, kasb-hunari nomi bilan «Kotib», «Qorovul», «Me’mor» deb yuritiladi. Insonning ichki va tashqi qiyofasini chizishda anchagina tajriba orttirgan muallif bu xil personajlar tasviriga kelganda bir qarashda hafsalasizlik qilganday taassurot qoldiradi. Aslida esa shu xil «hafsalasizlik»dan muayyan maqsad bor: hikoya personajlari bema’ni, shafqatsiz hayot tazyiqi ostida shu hayotdan begonalashgan, shaxsini, insoniy qiyofasini yo‘qotgan yoki yo‘qotayozgan kimsalardir».¹

90-yillar o‘zbek hikoyachiligining eng yaxshi namunalari sifatida adabiyotda o‘z mavqini egallagan bir qator bugungi kun dardi va ruhi bilan sug‘orilgan hikoyalarda xalqimizning milliy ruhi, o‘ziga xosligi teran talqin qilingan. Ularda yozuvchilarimiz an’anaviylikdan chekinmagan holda, jahon nasrining nodir namunalaridan ilhomlanib, milliy xarakter yaratishning yangi-yangi qirralarini kashf eta boshlaganlarini ko‘ramiz. N.Eshonqulning «Og‘riq lazzati» hikoyasi shular jumlasidandir. Unda inson ruhiyati va tafakkuridagi qabariq va nozik qirralarning tasviri beriladi. Asar qahramonlari atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarq noma’lum bir bo‘shliq qa’rida mayib va majruh, kimlargadir mute’, lekin bu mute’lik va majruhlikni o‘zlari mutlaqo his qilmaydigan kimsalar. Ularning kechmishi, kelajagi faqat tafakkur orqali ochiladi.

Hikoyada tasvirlangan vahshiylik-o‘zganing azoblanishi evaziga rohatlanish o‘zbek adabiyotida muayyan ma’noda yangi bir holat, deyishimiz mumkin. Adib o‘z asariga asos qilib kundalik voqealarni oladi va bu voqelik ko‘proq falsafiy-badiiy mushohadalar orqali beriladi. «Fig‘onlar qanchalik mudhish, hasratomuz chiqmasin, bunga hech kim e’tibor bermas, aksincha,

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Ma’naviyat, 2000. -B. 9.

bir necha fig'on ichidan kim ko'proq oh-voh qilayotibdi, kimning tovushi baland, kimniki zo'raki-yu, kimniki samimiy deb bahslashadilar».¹

Hikoyada uch toifadagi inson obrazining badiiy tasviri mujassamlashib, bir-birini to'ldirib keladi. Maydon bu ramziy ma'noda hayotdir. Ana shu maydonda azoblanuvchi va tamoshabin ishtirok etadi. Bu toifalarning har biri o'z tafakkur doirasiga ega. Shu sabab ham hikoyada tasvirlanayotgan fojia yozuvchi mahorati orqali kitobxonni hayajonga soladi va ishontiradi.

Endi asardagi obrazlarga alohida-alohida nazar tashlaylik. Azoblanuvchi mahkum kim? – degan savol tug'iladi. Xo'sh bu qanday muhit? Hikoyadagi inson taqdiri, obrazlari intihosining rangin bo'yoqlarini ko'ramiz. Asar qahramoni murakkab tuyg'ular egasi. Uning azobli qiyofasi o'ziga xos. Asar voqealari hikoyachi qahramon tilidan bayon qilinadi. Qahramon shahar o'rtasidagi maydonda ko'rgan voqealari haqida o'quvchiga hikoya qiladi. Asarda tasvirlangan bu voqealar ma'nosi tagzaminli. Uni har kim o'zicha tushunishi mumkin. Masalan, u dunyodagi ma'lum bir millatning, xalqning ko'rinishidir, balki. Unda azob-uqubatlarga giriftor qilingan millat vakillariga ishora bordek.

Asarda shunday jummalarni o'qiymiz: «Avval oyoqlarining, so'ng qo'llarining barmoqlarini birma-bir, bo'g'inma-bo'g'in sindira boshlardi. Og'riq qo'zg'atishi mumkin bo'lgan barcha usullarni qo'llashga ruxsat berilgandi, nazoratchilar avval mahkumlarni etlari shilinguncha savalab chiqishar, keyin yaralar ustiga suv sepishardi. Barmog'i singan mahkum o'kirib yuborar, yuzida azobli ifoda paydo bo'lib, ko'zidan yosh chiqib ketardi, ammo qisib olgan lablariga baayni zulmat ichida yonib turgan shamdek bir zaif tabassum qalqib chiqardi, og'riq kuchaygan sayin bu tabassum butun yuzni egallab olardi. Kimning yuzida azob o'rnida tabassum paydo bo'lsa tomoshabinlar o'shani ko'rsatib qiyqirishardi. Bu ularning

¹ Eshonqul N. Og'riq lazzati // Yoshlik, 1996, 3-son 20-bet.

olqishi edi». Bu tasvirlar ogʻriqli boʻlmasin, ammo haqiqatga yaqin holat. Chunki shoʻro siyosatiga koʻra, Ittifoqdagi hech bir xalq millat darajasiga etkazmaslikning yagona yoʻli ularni qoʻl-oyoqsiz, til-zabonsiz qilib tarbiyalash, yaʼni xalqning yoki millatning olimu fuzalolarini, yozuvchi yoki shoirlarini yoʻq qilish, ularning oʻrnida fikrlashdan mahrum, tafakkur qudrati yoʻq kimsalarni koʻpaytirish edi. Yozuvchining badiiy niyati kelgindi yot millat tomonidan berilgan tahqirlash, hukmronlik, milliy urf-odatlaridan mahrum etganlarga boʻlgan nafratini anglatish, millat fidoiylari uchun bu ogʻriqli hol ekanligini koʻrsatish. Lekin bu ogʻriq asarda jismoniy ogʻriq bilan almashtirilgan. Jismoniy azob unutilishi mumkin va u adib nazarida ruhiy ogʻriq oldida bir lazzatlanishdek koʻrinadi. Millatning ana shunday vijdon ogʻriqlaridan azoblanib, jismoniy qiynoqlarga mahkum qilingan farzandlari qatagʻon yillarni turmalarda, sovuq Sibirlarda oʻtkazdi.

Hikoyani oʻqib chuqur mushohadadan soʻng biz shunday fikrga keldik, lekin boshqacha talqinlar ham boʻlishi, chunonchi, asarni dastlab oʻqigan kitobxon yozuvchi jamiyatda roʻy bergan oddiy hodisalarni umumlashtirib bergan, degan xulosaga kelishi yoki insonlar miyasiga yangilik deb bu gʻoyalarni zoʻrma-zoʻraki singdirib, Sharq taʼlimotiga Gʻarbning nomaqbul tomonlarini kiritish shartmikan, bu adabiyotga soxta gʻoyalarni olib kirib, badiiyatning sunʼiy namunalarini yaratish emasmi, degan savollar ham tugʻilishi tabiiy. «Yozuvchi istasa ham, istamasa ham qalbi va aqli bilan oʻz asarining mazmunini tashkil etuvchi ziddiyatga tortiladi».¹ Demak, adib tasvirlayotgan voqealar mantigʻida uning shu voqeani qanday baholash va bu hodisalarga nisbatan oʻz munosabati aks etadi.

¹ Лондон Джек. Заметки английского писателя. Литературная газета 1954, 18 ноябрь.

N.Eshonqulning mahorati shundaki, u o'zi tasvirlayotgan voqeani kitobxon ongiga singdira olgan, qahramonlar, ularning xatti-harakatlariga nisbatan kitobxonning qarashlarini shakllantira olgan.

Ma'lumki, odamlar bir-birlariga o'xshamaganliklari singari ularning xarakterlari ham turlicha bo'ladi. Har qanday inson tafakkurida yaxshilik ham, yomonlik ham qorishiq holda birdek mavjud. Faqat bu ikki xususiyatning qaysi biri hayot davomida qay yo'sinda ko'proq rivojlanishi ijtimoiy muhitga bevosita bog'liq hodisa. N.Eshonqulning bu hikoyasi fikrimizning isboti. Hikoyani o'qigan o'quvchi ongining qaysidir burchagida bemehrlik, vahshiylikka nisbatan isyon uyg'ongandek bo'ladi. Hikoyada adib tafakkuriga hayotning qaysi bir jihatidan ta'sir ko'rsatgan vahshiylik aks etgandek. Muallif tilidan aytilayotgan so'zlar, fikrlar o'sha jamiyatning aksiga, ruhiyatiga singib ketgan. Tasvirlangan vahshiyliklardan adib yaratgan har bir obraz o'zicha lazzat oladi: mahkumlar og'riqdan, nazoratchilar jazo berishdan, tamoshabin esa azob berish va azoblanish holatlarining guvohi ekanligidan. Adib bu bilan eskicha tafakkurdan kechibgina qolmay, yangicha badiiy fikrlash imkoniyatlarini qidirayotgan qahramon talablariga javob beradigan yangi xarakterlarni adabiyotimizga olib kirishga harakat qilmoqda degan xulosa qilish mumkin.

Turg'unlik yillarida avj olgan siyosat, xususan, paxta yakkahokimligi, rahbarlarining o'zboshimchaligi xuddi ajdaho singari dahshatli ediki, u o'zining domiga hamma narsani tortaverdi. Undan qutulish esa oson bo'lmadi. Qanchadan-qancha begunoh umrlar zavol topdi. Ana shu jihatlarni o'zida aks ettirgan biz malakaviy-bitiruv ishimizning ushbu bobida tahlil qilgan asarlarning qahramonlarining taqdirleri inson ongiga ta'sir qilib, ularning o'zligini anglatishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumki, hikoya epik turga mansub kichik hajmli, syujet qamrovi ko'proq bir voqea bayoniga asoslangan janr bo'lib, u g'oyaviy-badiiy

mazmuni jihatidan romanga teng mohiyatga ega bo'lsa ham, biroq personajlar miqdorining ozligi, yechimning bir kulminatsion nuqta bilan hal bo'lishi kabi xususiyatlari bilan boshqa epik janrlardan farqlanib turadi. Hikoyada voqealar qisqa va o'ta ixcham shaklda tasvirlanadi. Ko'pgina adabiyotshunoslarning yakdillik bilan qayd etishlaricha, hikoyada ixchamlik, personajlar miqdorining ozligi, aksariyat hollarda, bir voqeaning eng muhim nuqtalarini tasvirlash hikoyaning o'ziga xos betakror janr xususiyatlarini tashkil etadi. Bunday xususiyat hikoyaning boshqa epik janrlar sirasida alohida o'rin tutishini anglatadi. «Chunki ixcham shakl vositasida inson va uni o'rab turgan ijtimoiy va tabiiy muhitni, keng ma'noda, hayotni butun murakkabligi bilan aks ettirish hikoyaga xos badiiylikning mohiyatini belgilaydi. Darhaqiqat, hech qanday mezonlarga sig'maydigan hayot muammolari, insonning murakkab xarakteri «kichik nasriy asar maydonida harakat qiladi».¹³

Hikoyaning janr xususiyatlari haqida bildirilgan yuqoridagi mulohaza shundan dalolat beradiki, asar syujetining qisqa va ixchamligi, personajlarning ozligi ushbu janrning g'oyaviy-estetik jihatdan yukini yengillashtirmaydi. Aksincha, ixchamlik va qisqalik tasvir hamda ifodaning eniga qarab kengayishini emas, balki bo'yiga qarab chuqurlashganligini bildiradi.

Ana shu mulohazalar asosida mazkur bobda tahlil etilgan hikoyalardan quyidagicha xulosalarga kelindi.

Birinchidan, erkning o'zi nima ekanligini, uning tom ma'noda qanday ma'naviy-intellektual ehtiyoj ekanligini chuqur anglab yetmagan, ishonch-e'tiqodda aldangan bir necha avlod ahvoli uning 90-yillar boshlaridagi kayfiyatini «Maymun yetaklagan odam», «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyalari orqali ifoda etilgan. Har ikki hikoyada ham rassom chol, M. ismli adib xarakterlari tasviri orqali inson hayotdan butunlay umidini uzib qo'ygan

¹³ Vladimirova N.V. O'zbek hikoyalarida g'oya va obraz. -T.: Fan, 1969. - B.5.

asnlarda, tushkun holatlarda ham, baribir insonning hayotga qanchalik talpinishi ta'sirchan holatlar tasviri orqali ko'rsatilgan. Nazar Eshonqul har ikki hikoyasida ham qahramonlar psixologiyasini yoritishda betakror, original usul qo'llaydi. Xususan, ta'kidlaganimizdek, rassom chol ruhiyati o'zi chizgan suratlardagi holatlar, kayfiyatlar manzarasi orqali yuzaga keltiriladi. M. ismli adib xarakteri esa o'zi yaratgan badiiy asardagi adabiy personajlar hayoti, voqelik manzaralari vositasida gavdalantiriladi.

Har ikki hikoyada ham kechinmalar, qahramonlarning o'y-mushohadalari orqali sizib chiqayotgan his-tuyg'ular uyg'unlikda, yaxlit birlikda kayfiyat psixologiyasini bunyod etayotir. Lirik personaj sifatida hikoyada ishtirok etayotgan muallif nutqi esa, hikoyalarga asos qilib olingan hayot materialini voqelik jarayonlarini bir o'zanga solib birlashtirgan. Bu borada tabiat tasviridan ko'ra jamiyat psixologiyasini yaratishda voqelik jarayonlariga ko'proq diqqat-e'tibor berilgan. Rassom chol suratlardagi manzaralar orqali, M. ismli adib asarlaridagi adabiy personajlar nutqi, so'zlari vositasida qahramonlar psixologiyasi yaratiladi. Bu Nazar Eshonqulning betakror o'ziga xosligini, ijodiy individualligini asoslagan.

III BOB

INSON TAQDIRI TALQINI VA IJODIY INDIVIDUALLIK

Badiiy adabiyotda hayot go‘zalliklari, insonning ijtimoiy faoliyati va ma’naviy olami, ma’lum bir estetik kategoriyalar orqali o‘z ifodasini topadi. Badiiy adabiyotning estetik kategoriyalari deyilganda, poetik idrok etilgan hayotiy voqelikni tasvirlash yo‘llari, badiiyat qonuniyatlari nazarda tutiladi. Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonovning fikricha: «Estetik kategoriya bu hayot go‘zalliklarining adabiyot va san’atda in’ikos ko‘rinishlarining tasvir yo‘llaridir».¹

Keyingi yillar hikoyalarida inson hayotining eng shiddatli voqealari chigal taqdirilar-u, fojiali kechmishlari, qahramonona voqealarga boy yulduzli onlari o‘zining ta’sirchan ifodasini topmoqda. Hikoyachilikda yangi qahramonlarning tug‘ilishi esa o‘z navbatida jahon adabiyotidagi mavjud an’analarning sezilarli ta’sirida vujudga kelayotganligini ham qayd etmoq zarur. Yozuvchi inson taqdiridagi nozik murakkab holatlarni hamda shu inson sajiyasidagi muhim xislatlarni, uning ma’naviy olamini tasvirlashga asrlar davomida harakat qilib kelmoqda.

Darhaqiqat, san’at asarlari insonni o‘rganishga, uni kashf etishga bor kuch – qudratini sarflab kelmoqda. Shuning uchun adabiyotshunos H.Umurov bu holatni quyidagicha tahlil qiladi: «Ma’lumki, insondan tashqari, uni o‘rab olgan tabiat ham, jamiyat ham, hayvonot, o‘simliklar dunyosi ham, buyumlar, predmetlar ham tasvirlanadi. Faqatgina ular bir shart bilan tasvirlanadilar, ya’ni ular inson xarakteri va ruhiy holatining u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qilishlari, demakki, insoniylashtirilishi

¹ Qo‘shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. 1-jild. –T.: 1983. 137-bet.

lozim. Inson va uning ruhiyati tasviri bo'lmasa, aytilgan narsalar bu tasvirni, insoniy xislatni olmasa, uning adabiyotga daxli yo'qdir.»¹

Shu sababli ham adabiyot insonni tasvirlaydi, e'zozlaydi va ulug'laydi. Adabiyotgina insonning tashqi va ichki hayotini, moddiy va ma'naviy dunyosini, ma'naviyati va salohiyatini to'la va atroflicha yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tasvirlaydi. Shu nuqtai nazardan, yozuvchi Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida insonning o'ziga xos xislatlarini, xarakter va ruhiyatini, jamiyat hayotining uning xarakter shakllantirishga ta'sirini, tahlil qilish orqali olam va odam o'rtasidagi birlikni qay darajada yuzaga chiqara olganligini kuzatamiz.

Hikoya butunlay ramziy obraz, tafsil va ishoralarga asoslanganligi, yashirin falsafiy talqinga moyilligi, aniqroq qilib aytganda, murakkab badiiy sintez mahsuli ekanligini qayd etmoq lozim. Chunki, asardagi tashqi ramziy ishoralar bilan ichki mazmuniy qatlamning aloqadorligini har bir kitobxon o'zicha tushunadi va tahlil etadi. Asardagi ilk tasvirlar qahramon qiyofasini tasvirlash bilan boshlanadi. «Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqlarda chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim. U qaboqlari soliq soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlangan, ko'rimsiz yuzi tarix kitoblarida tasvirlangan badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortardi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida 50-yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi».¹

Asar qahramonining portreti orqali uning hayot yo'liga nazar solayotgandek taassurot uyg'otadi. «Egnida 50-yillarning andozasida tikilgan

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002. 25-bet.

¹ Eshonqul Nazar. Maymun yetaklagan odam. Qissalar va hikoyalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2004. 120-bet. (o'rinlarda asar sahifasi ko'rsatiladi).

ancha salobatli kitel», - demak o'sha davrning ilg'or kishilaridan biri bo'lib, yillar o'tgan sayin o'z mavqeini yo'qotib borgan shaxs qiyofasidir.

Yuqorida keltirilgan parchadan ko'rinadagi, yozuvchi asar qahramonining kim ekanligini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantira olgan. Shu bois ham kitobxon asar qahramoni umrining so'ngi damlaridagi fojiasi hayotiga qiziqish bilan qaray boshlaydi. Yozuvchi qahramon holati va u bilan bog'liq voqelikka oddiy bir kuzatuvchi sifatida nigoh tashlaydi. o'z taassurotlarini esa hikoyachi qahramon tilidan bayon etadi. Aslida bu inson qalbidagi iztirob nimada ekanligini kitobxon o'ylay boshlaydi. Uning bir vaqtlar tuzukkina rassom bo'lgani va hozir ham surat chizib turishini eshitgan kitobxon hayron qoladi. Uni surat chizishga undagan iztirob nimada ekanligini anglashga intiladi. Rassom cholning atrofdagilardan uzilib qolishiga, hech kim bilan muomala qilmaslik sabablari keyingi tasvirlarda o'z ifodasini topa boshlaydi. Yozuvchi qahramon qiyofasini chizar ekan, hikoyada murakkab inson xarakterini yaratadi va bu xarakterning badiiy talqini asar mazmuni orqali o'quvchiga yetkaziladi.

«Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtai nazardan tasvirlashi bilan bir – biridan farq qiladi. Eng qisqa asarlarda ham xarakterning nozik bir nuqtasi aks etganidek, epik asarlarda inson ruhiyati, maqsadlari butunligicha tasvirlanadi. Har bir janr, tur xarakterni tasvirlashdagi bichim shakldir. Hozirgi ilg'or jahon adabiyotida insonni barcha tomonlarini qamragan holda, bus – butun aks ettirish yo'llari izlanmoqda.¹ Ko'rinayaptiki, nafaqat o'zbek adabiyoti, balki umuman adabiyotda xarakter yaratish muamosini har qachongidan jiddiy, izchil qilib tasvirlash yo'llarini izlashda davom etmoqda.

¹ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar. Etyudlar. –T.: Sharq, 2010. 56-bet.

Inson murakkab xarakter egasi, uning qalb kechinmalari turfa xil bo'lib, murakkab hayotning turli qirralarida u yoki bu darajada harakat qiladi. «Uni hayotga omadi chopmagan biron amaldor bo'lsa kerak, deb taxmin qilgan edim. Keyinchalik cholni tez – tez o'sha kitelida go'yo necha qadam umri qolganini o'ylab yurganidek og'ir qadamlar bilan uyiga yoki ko'cha boshidagi oziq – ovqatlar do'koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla oshxonasida ovqatni titrab – qaqshab yeb o'tirganini, qaboqlari ostidan odamlarga adovat bilan tikilib – tikilib qo'yganini ko'rib qolardim. Zaharli odamni bo'g'ib, holsiz qilib qo'yadigan bu adovat menga o'shanda uning butun tanasidan, vujudidan, qoqshol bo'lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi tilsimni qo'rg'on kabi menga noma'lum bo'lgan umr qal'asidan ufurayotgandek tuyulardi» (120-bet).

Asar qahramonining bunday holatga tushishi haqida o'ylab qaralsa, inson yeladi, yuguradi, oxir oqibat o'z dardlari bilan yashay boshlaydi degan xulosaga kelish mumkin. Hayot, ijtimoiy muhit insonni tarbiyalaydi, voyaga yetkazadi, ammo u hayotda qay darajada o'rnini, qadrini topadi buni hayotdagi voqealar ko'rsatadi.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlab o'tganidek: «Inson tirikchiligi uchun bevosita kerak bo'lmaydigan narsalarga intilgan vaqtdan e'tiboran chinakam odamga aylanadi. Kishi uchun bevosita kerak bo'ladigan narsalar har qanday tirik mavjudotga zarur. Oziqlanish, himoyalani, ko'payish kabi ehtiyojlarni qondirishiga har qanday jonivor intiladi va buni qo'lidan kelganicha uddalaydi. Tiriklik uchun bevosita kerak bo'lmas-da, ma'naviy-ruhiy qadriyatlarga esa, faqat odamgina tan iskanjasidan bir qadar ozod bo'ladi, vujud ehtiyojidan yuksalib, ruhga bog'liq istaklarni tuyadi».¹

¹ Yo'ldoshev Q. Anglashning azobli yo'li // Guliston, 2005. 1-son, 23-bet.

Inson ruhiyatidagi quvonch-u iztiroblar, muhabbat-u shafqatlar, yovuzligu ezguliklar mujassamlashadi. Ammo u bunday xususiyatlarni ijtimoiy muhitda qay darajada, qay birini yuksaltiradi, inson shaxsiyatiga, xarakteriga bog‘liqdir.

Shuning uchun millat, vatan, yurt singari ulug‘ miqyosini tushunganlar ham ijtimoiy maqsadlarning emas, muhabbat, ezgulik deb atalmish yurakka doir nozik tuyg‘ularning tadrijiy davomidir. Ammo butun hayotini ma’lum bir muhitga xizmat qilish bilan o‘tkazgan inson, umrining so‘ngi damlarida “yolg‘on haqiqat”ga xizmat qilganini his etib qolsa-chi, uning keyingi taqdiri, qolgan umri qanday azoblar, iztiroblarda o‘tishini bir daqiqa bo‘lsa ham o‘ylab ko‘raylik. Bu holatni yozuvchi yanada bo‘rttirib tasvirlaydi. «Menga, avvalo, uning turqi yoqmasdi: nochor holiga qaramay odamlarga kibr aralash dimog‘-firog‘ bilan qarar, hammaga yotsirab, shubha bilan tikilar, go‘yo o‘zini bir umr har bir kishiga shunday tikilib o‘tgandek tutardi» (121-bet).

Badiiy asarda yozuvchi, avvalo, xarakter mohiyatiga kirishga intiladi. Qahramon xarakteri oydinlashgach, uning «portreti» ko‘rinadi, so‘zlashidagi o‘ziga xosligi eshitiladi, xatti-harakatlari namoyon bo‘ladi. Qahramon xarakterini chuqur bilgan yozuvchi uning ichki monologini, ongidan kechayotgan fikrlarni tasvirlashga intiladi. San’atkor qahramon qalbiga kirib, unga baho beradi, o‘ylarini, kechinmalarini tasvirlaydi.

Agar yozuvchi Nazar Eshonqul asarlariga jiddiyoq e’tibor bersak, ularda «qora bo‘yoqlar» ya’ni badbo‘y hid, chirkin joy o‘ziga xos ramziy ma’noga egaligini anglaymiz. Bu hikoyada ham shu xildagi tasvirlarni uchratamiz. «Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlar chirigan, umuman hovlidan chirkin va badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va

ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayoliga birdan unduqadagi axlatlarni chol umr bo‘yi saqlab kelgan bo‘lsa kerak, degan fikrga kelib qoldim» (121-bet).

Yozuvchi nima uchundir bu makonni o‘ta jirkanch tasvirlashga intiladi. Yoki bunda ramziy ma’nolar o‘z ifodasini topganiga e’tibor qaratsak, jamiyatdagi, ya’ni sovuq sho‘rolar hayoti tasvirini o‘ziga xos uslubda taqdim etganligiga ishonch hosil qilamiz. Axir chol ham bekorga chirkin, shaltoq hid keluvchi narsalarni umri bo‘yi yig‘maganligiga, yig‘sa-da unda o‘zgacha ma’no borligiga ishonamiz.

Rassom chol mustabid tuzumining, hukmron mafkuraning qilich va qalqoni tuzum yetishtirgan “siyosiy hushyorlik”, yovuzlik, shafqatsizlik timsoli. «Hikoyani o‘qir ekanmiz, rassom cholning chizgan suratlarida o‘zbek xalqining yetmish yillik mafkuraviy tutqunlik davridagi hayoti yaqqol aks etganligini, sobiq sho‘ro davrining o‘zbek xalqi taqdirida qoldirgan qora izlarini ko‘ramiz».¹ Bu o‘rinda olima Gulnoz Sattorova rasmlarida ko‘ramiz degan fikrni ilgari suradi. Makondagi badbo‘y hidlardagi ramziylik nimada ekanligini kitobxon yana anglay olmayapti. Uning asosiy xususiyati yemirilib, chirib borayotgan jamiyat, sho‘rolar tuzumidir. Ammo unga umr bo‘yi xizmat qilgan insonning ham so‘nggi hayoti shunga qiyoslanmoqda.

Ramzda hayotiy voqea, tushuncha va narsalar biron predmet, ma’lum voqea-hodisalarning xususiyatlari orqali ifodalanar ekan, unda doimo yashirin o‘xshatish yotadi. Demak, hikoyaning o‘ziga xos tilini, unda yashiringan ramziy tasvirni to‘g‘ri anglay turib, uni tushunish asarda yashiringan teran falsafiy mazmunni anglab yetish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun ham hikoyadagi badbo‘y hidlar zahirida falsafiy talqin mavjud deb qaraymiz.

¹ Sattorova G. Badiiy niyat va xarakter // O‘zbek tili va adabiyoti, 2000. 4- son, 10-bet.

Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdamov «Turfa ranglar uyg‘unligi» nomli maqolasida yozadi: «Agar qahramon hayoti tanlab olingan rang orqaligina olishar ekan, unda shu rangga alohida e‘tibor qaratilgani holda, qolganlariga ham yo‘l berishga to‘g‘ri keladi. Toki, o‘quvchi ko‘rsinki, asar qahramoni atrofida turfa xil ranglar bor edi, biroq taqdir uni shunday girdoblarga otdiki, oqibat uning ko‘zlari, masalan, qoradan o‘zgasini anglamay qoldi. Qolaversa, insonning hayoti boshdan oxir zulmatning ichida kechsa-da, uning orzulari ko‘pincha yorug‘ bo‘ladi».¹

Ko‘rinayaptiki, ramz orqali, yoki yanada aniqroq aytsak, hikoyadagi «qora ranglar»da ham o‘ziga xos falsafiy mulohazalar yotganligini bu fikrlar orqali ham isbotlash mumkin. Chunki hikoya qahramoni rassom cholning ilk suratlarida ranglar o‘ziga xos tarzda ifodalansa-da, so‘nggi rasmlarda qora rangning ortib borishidan asardagi hikoyaning o‘zi ham lol qoladi va undan qandaydir ma‘no izlashga intiladi.

U.Normatov qayd qilganidek: «Nihoyat, bizda ham hayot hodisalarini, realizm zaminida, badiiy tahlil-tadqiq etishga urinishlar bo‘layapti... Inson shaxsi, qalbining davlat, tuzum, ijtimoiy, mafkura, hatto din, siyosatga bo‘ysinmaydigan g‘aroyib jihatlarini talqin etishda yana o‘zgacha tamoyillar ko‘rinmoqda».²

Darhaqiqat, o‘zgacha tamoyillar asosidagi talqinni Nazar Eshonqul ijodida ham bevosita kuzatish mumkin. Yozuvchi rassom chol portretini tasvirlar ekan, unda o‘ziga xos xarakter xususiyatini ko‘ramiz. «U bu yerdagilarni ham unutganday, xo‘rillatib, imillab, chollarga xos lanjlik bilan ovqatlanar va og‘zining ikki chetidan lag‘monning suyug‘i yana kosaga oqib tushar, boshi qalt – qalt titrar, bo‘yinlarida tirishib qolgan tomirlar yutilganda bo‘rtib ko‘karib ketar, ko‘zlari horg‘in yoshlanib turar, dam – har damda qansharini o‘ng qo‘li bilan qashirdi» (121-bet). Inson qiyofasini ham

¹ Hamdamov U. Turfa ranglar uyg‘unligi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2000. 29-sentabr.

² Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma’naviyat, 2000, 20-bet.

shafqatsizlarcha tasvirlashga, uning butun borlig'ini ochib tashlashga intilayotganini kuzatish mumkin. O'quvchida asar qahramoni haqida turfa xil fikrlar uyg'ona boshlaydi. Balki, keksa cholning umrining so'nggi damlarida shunday holatga tushgandir, degan fikr ham uyg'onadi. Ammo nima uchun bu darajada fojiali holatga tushgan inson nimagadir intilayotgani kitobxonni o'ylashga majbur qiladi. Hatto qo'llari oddiygina qoshiqni madorsiz ko'tarayotgan bu inson yana qanday surat chizishi, ijod qilishi mumkin degan turfa xil fikrlarni yog'diradi. Uning ifodasiz yuzidan hech nimani tushunib bo'lmaganidek, ovqatni eplab icholmaydigan asabiy va ro'dapo cholning rassom ekanligiga kitobxonda ishonchsizlik vujudga keladi. Ammo undagi nafratda, odam va olamga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatda nimadir borligiga ishonch ham hosil qiladi. Ana shu ishonch asarning falsafiyligidan, an'anaviy asar emasligidan dalolat beradi. Shafqatsiz hayotining qurboniga aylangan bu shaxsning xarakterida nimadir borligi, uning fojiali hayotidan ma'no izlash mumkinligini ko'ramiz.

«—Suratlarngizni ko'rsam bo'ladimi? Yigirmanchi yillardagi suratlarimgizni», — deb so'radim undan shubhamni bildirmaslikka tirishib. Chol bamaylixotir kavshandi-da, menga qaramasdan, o'ziga buni aloqasi yo'qday, go'yo bir uyum axlatni ko'rsatayotganday, ijirg'anib, qo'li bilan ayvonning to'rini ko'rsatdi.

—Hammasi tartib bilan terib qo'yilgan, u tomondan boshlanadi, — dedi hirqiroq tovushda. Uning tovushi ham shunchalik sovuq ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi: indamay ayvonning to'riga qarab yo'l oldim» (120-bet).

Rassom cholning yigirmanchi yillardagi hikoyasi tili bilan aytganda, shu ko'chadagi ba'zi san'atni tushunadigan odamlar ham maqtaganligini qayd etadi. Ana shu ishonch uni suratlar bilan tanishishga undaydi. Hatto muzeyda ishlaydigan shaxs ham cholning bu yillardagi suratlari bir vaqtlar

ko'rgazmaga qo'yilganligini qayd qilgan. Chol yigirmanchi yillarda hayot oqimida o'z o'rniga ega bo'lgan, komsomol bo'lib bosmachilarga qarshi kurashgan, yangi hayot qurishida faol ishtirok etganligini ham alohida ta'kidlab o'tadi.

Rassom cholni yigirmanchi yillarning shiddatli shamoli uni yuksak parvozlarga ko'targan, o'ttizinchi yillarda esa yuksak pog'onalarga ko'tarilib, mas'ul vazifalarda ishlaganidan dalolat beradi. Yangi tuzumni joriy qilishda faol qatnashib, hech narsadan qaytmagan, hatto yillar o'tib, o'zi qamatgan, dushmanlik qilgan odamlarini ko'rgisi kelmay shunday hayotni lozim topgan. Uning xotini esa elliginchi yillarda vafot etgan bo'lib, istarasi o'zinikidan ham sovuq bo'lgan o'g'li bo'lib, turli jinoiy ishlari sababli o'z jazosini olgan bo'lsa-da, otasini ba'zan kelib kaltaklab ketar va undan pul talab qilardi. Tasvirlanishicha, u shaharning chekkasida bir beva ayol bilan yashar, oyda-yilda bir ko'rinish berar, shunda ham otasiga azob berib, ketishi qayd qilinadi.

Asar syujetidan o'rin olgan bunday tasvirlar rassom cholning fojiali qismatidan dalolat beradi. Axir yillar davomida bir mafkuraga e'tiqod qilib kelsa-yu, umrining so'nggi damlarida uni muhit bir chekkaga uloqtirib tashlasa, inson uchun, o'zligini anglab ulgurgan shaxs uchun bu juda katta fojia.

Shafqatsiz hayotdan inson najot kutib yashaydi, ammo qachondir bu najotni o'zi kimgadir qilgan bo'lsa, albatta. Ammo rassom chol hayoti davomida tinimsiz kurashgan va bu kurashni adolatli deb his qilgan, lekin yillar shamoli ortda qolgach, bu hislar yolg'on ekanligini anglab ulgurganda ancha kech bo'lib qolgan. Chunki inson umri tabiat, borliq, oldida lahzalik emasmi? Ana shu lahzalik umr ham zoe ketsa, unga o'tgan shafqatsiz kurashlar zahirida o'z hayotiga nafrat uyg'otishi tabiiydir. Cholning ayvoni – unga ustaxona vazifasini o'tar, u yer ham lash-lushlardan iborat edi. Ham

chirkin bu yer biror kun obod bo'lar, inson hayotining ibtidosi bo'lgani kabi, har qanday tuzumning ham yemirilishi mavjudligini kitobxon anglay boshlaydi. «Bu yerda har xil keraksiz ashqal–dashqal, sun'iy gullar, tuvaklar, turli bo'yoqlar, sarg'ayib ketgan kitoblar, olov ko'tarib ketayotgan bola tasvirlangan haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, to'rlar, zanjirlar qalashib yotar va bu yerdan ham shilta hidi kelar, ayvondan ko'ra besamar o'tgan umrni eslatadigan besarishta qaznoqqa o'xshab ketardi» (123-bet). Rassom cholning oddiygina shu xonasining tasviriga diqqat qilinsa, sun'iy gullar nima uchun aynan sun'iy, tabiiy emas, hayotning, muhitning, jamiyatning sun'iyligidan dalolat beradi. Yoki, olov ko'tarib ketayotgan bola tasvirlangan haykal – hayotga yorug' olamga endigina qadam qo'ygan inson yorug' olamni istashi emasmi? Olamning go'zalligini, borliqning mavjudligini anglash uchun olov ko'tarib, yorug'lik, ozodlik istab yurgan inson qiyofasi emasmi? Yana shuncha lash-lushlar, yana shilta, yoqimsiz hid – bulardan, muhitdan bezgan inson qiyofasi emasmi? Besamar o'tgan umrga achinish hissining vujudga kelishi, insonning o'zini anglab ulgurmay hayotning, o'z umrining tugab qolishi, tugab borayotganligini anglab qolgan inson iztiroblari, qalbidagi, kechinmalaridagi kurashlar ekanligidan dalolat beradi. To'g'ri, inson tug'iladi va o'ladi. Ammo buning oralig'idagi inson hayoti, uning mehr izlab, mehr topa olmagan qiyofasidan dalolat beradi.

Rassom cholning suratlariga diqqat qilar ekan, «1947», «1928», «1926» kabi tartib bilan qo'yilganligi uning diqqatini tortadi. Bu suratlarni yillariga diqqat qilgan kitobxon cholning umrining o'ziga xos qirralari bilan tanishtiradigan ramziy ma'no ko'zga tashlanadi. Uning hayot zinapoyalaridan ko'tarilib borishi yoki aksincha ekanligini juda kech anglab qolgan inson qismatidan dalolat beradi. Eng oxirgi surat ostiga «1921» sanasi yozib qo'yilganiga e'tibor qaratsak, u shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan bo'lsa kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Bu surat uning ilk san'at asari

bo'lsa-da, ancha uquvsizlarcha chizilganligi ko'zga tashlanib tursa-da, undagi ranglar juda tiniq va yorqin edi. Ha, endigina hayotda o'z o'rnini topish mumkinligini his etgan damlar. Suratda quyuq o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta, kelishgan qad-qomatli yigit tasvirlangan. Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan, o'ziga ishonch hosil qilgan yigit timsoli. Uning yuzidagi ishonchdan kitobxon hayratga tushadi. Bu o'rinda yashiringan ramziy-falsafiy ma'noni o'quvchi izlay boshlaydi.

Muhitga qadam qo'ygan insonda o'ziga xos ishonch bo'ladi. Bu ishonch qay darajada to'g'ri ekanligiga vaqt kafolat bermaydi. Yoki tuzumning hayotiyiligiga, uni vujudga keltirgan shaxslarning unga ishonchidan darak beradi. Ammo yillarning suronli kurashlariga bardosh bera oladigan misoli o'zidan yorug'lik, tenglik, ozodlik va shafqat taratib turgan jamiyat tasviri. Agar yanada jiddiyoq diqqat qilsak, qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning ko'nglidagi hissiyotni to'la aks ettira olganligini ko'ramiz. Ammo nima uchun sho'rolar tuzumining vujudga kelishidagi davr, o'sha muhit ifodasi mavjudligini ichki bir tuyg'u bilan anglab olamiz.

Jamiyatning, hayotning asr boshlaridagi haqqoniy qiyofasi ko'zga tashlanadi. Unga xizmat qilgan, yillar shamoliga, bo'roniga o'z ko'kragini tutib bergan shaxs, ya'ni yigitning davrlar o'tishi bilan fojia bilan yuzlanishi kuzatiladi. Inson qismati, o'sha tuzum orqali haqqoniy o'z ifodasini topadi. Ammo yillar shamoli uni yorug'lik sari emas, aksincha zulmat tomon yetaklab borganini juda kech anglab ulguradi.

«Adabiyot kelajak va inson haqidagi go'zal iztiroblar va qayg'ular aks etadigan hamda insonning tafakkurini bu iztiroblardan betinim xalos bo'lishiga undaydigan bir vosita. Adabiyot odamni ozod bo'lishiga undaydi. Shu sababli har bir davr ijodkori oldida o'z davri qahramonini yaratishdek buyuk mas'uliyat doimo mavjud. O'z davrining odami qanday o'ylayotgani,

qanday fikrlayotgani nimadan iztirob chekayotgani, nima uni qiynoqqa solayotgani, uning ichki dunyosi hamisha ijodkorning oldidagi asosiy vazifalaridandir».¹

Darhaqiqat iste'dodli yozuvchi Nazar Eshonqul qayd qilib o'tganidek, «inson haqidagi go'zal iztiroblar va qayg'ular» bu hikoyada mujassamlashganining guvohi bo'lamiz. Chunki hikoyadagi mavzu ham o'z zamonasining tafakkuridan, yashash tarzidan kelib chiqqan. Agar shu nuqtai nazardan jahon adabiyotiga e'tibor qaratsak, Kafka asarlaridagi «iztirob», «jazo koloniyasi»ni o'sha payti sezishmagan, ijtimoiy tafakkur unga bir alamzadalik in'ikosi sifatida qaragan bo'lishi mumkin. Biroq, Kafka o'limidan so'ng butun dunyo kommunistik va fashistik koloniyalarining dahshatlarini o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Shundan keyin butun dunyo Kafkani o'qiy boshlashi hech kimga sir emas. Inson qismati, uning fojiali hayoti badiiy asarlarda tasvirlangan.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning bu hikoyasida ham, eng avvalo, inson taqdiri, o'y kechinmalari, iztiroblari turadi. To'g'ri, ma'lum bir tuzumning qurboniga aylangan shaxs hayoti mavjud, ammo u inson. Insondagi mavjud xislatlarning shakllanishida davr muhiti yetakchilik qilishini qayd etmoq zarur. U o'sha jamiyat uchun xizmat qildi. Xizmati davomida o'z hayotiga ishonch hosil qildi, lekin yillar o'tishi sayin murakkab hayotning qurboniga aylanib ulgurganini his etdi. Xuddi mana shu holat inson taqdiri, qalb kechinmalaridagi ziddiyatlarni yanada teranroq anglash zaruratini tug'dirdi.

Adabiyot so'z san'ati ekan, har bir kitobxon haqiqiy san'at asariga duch kelganda uning kechinmalarida go'zallik bilan uyg'unlashadigan hissiyotlar paydo bo'ladi. Ijod esa go'zallikni yaratish va go'zallik uning yarashish jarayonidir. Shu jihatdan qarasak, ma'lum bir davrda yaratilgan asar oddiy kitobxondan boshlab, yetuk adabiyotshunos yoki tanqidga

¹ Eshonqul N. Samoviy zavq lazzati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003. 14-fevral.

diqqatini jalb etadi. Bunday asar haqida har bir ijodkor, adabiyotshunos o'z qarashini bayon etadi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari bilan bir qatorda «Maymun yetaklagan odam» hikoyasi ham adabiy tanqidda turli qarashlar asosida taxminga tortilgan. Bu ilmiy nazariy qarashlarni inkor etmasak—da asarning qaysi poetik xususiyatlari taxminga tortilganligini yoki asarning qanday badiiy jihatlari tanqidchilarimiz tomonidan chetda qolganligini umumlashtirishga o'z mulohozalarimizni asoslashga intilamiz. Albatta, har bir shaxsning o'zligi bo'lgani kabi badiiy asar haqidagi qarashlari ham turlichadir.

Adabiyotshunos olim Umarali Normatov asar haqida yozadi: «Maymun yetaklagan odam» qahramoni o'z umrini, hayotini, bor zakovatini asrimizning «ulug' ishlariga» tikkan, bu borada o'zini ham ayamagan, qolaversa, jamiyat ham uni siylagan, pensiyaga chiqqunga qadar turli lavozimlarda ishlagan. Uni faqat ilohiy qismat jazolagan. Xotini o'lib farzandlari nopob chiqib qariganida tanho, qarovsiz, ayanchli ahvolga tushib qolgan. U ish, prinsip deb qarindosh urug'laridan judo bo'lgan, unda do'st — birodarlar ham yo'q. Eng yomoni, uning qalbida qarigan chog'ida, bu foniylar dunyodan boqiy dunyoga rihlat qilish yaqinlashgan damda ruhan taskin topib ovunadigan ilohiy e'tiqod yo'q».¹

To'g'ri, asar qahramonining fojiasi ham shunda. Chunki u e'tiqod qiladigan tuzum, jamiyat o'zgardi. Jamiyatning rivoji uchun butun e'tiqodi bilan kurashdi. Jamiyat ham uni turli mansab pog'onalariga ko'tarib bordi, buni inkor etish mumkin emas. Chunki o'zi chizgan suratlar bu fikrni asoslaydi. Uni ilohiy qismat jazoladi. Qanday qilib, nima uchun degan savollar tug'ilishi, tabiiy. «Xotini o'lib, farzandlari nopok chiqib, qarigan chog'ida tanho, qarovsiz, ayanchli ahvolga tushib qolgan». Buni ham tabiiy,

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. —Toshkent, Ma'naviyat, 2000, 8-9-betlar.

deb qabul qilmaylik. Ammo vatan ostonadan, oiladan boshlanadi. o‘z farzandlarini nopok chiqishiga jamiyat yoki tuzum aybdormi, nima uchun?!

O‘z farzandiga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata olmagan «ota» qanday qilib jamiyatni, uning a‘zolarini boshqaradi. Axir, «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», - degan xalq maqoli bejiz aytilmagan-ku?! Ota o‘z otalik burchini bajarishda, ya’ni «farzandni dunyoga keltirish» vazifasi emas, uni tarbiyalab, jamiyat rivoji uchun kurashuvchi shaxs sifatida ham shakllantirishi zarur emasmi?! Shundagina e‘tiqodli, ishonchli yoshlar voyaga yetmaydimi kabi savollar kitobxonda tug‘ilishi tabiiy, bordi–yu, o‘sha tuzum yoki jamiyatning o‘zi shunday e‘tiqodsiz shaxslarni, «farzandlar»ni yuzaga kelishiga imkon yaratib bergan bo‘lsa–chi!

Hayot murakkab, ammo uning barcha qiyinchiliklarini inson yengib o‘tishi lozimdir. Rassom cholning kuch–quvvatidan tuzum unumli foydalanadi, o‘z vatanida vatanga qarshi qo‘ydi. Eng yaqin odamlarini ham sotqinlik va xiyonatda ayblab ularni jazoga torttirdi. Shuning jazosini eng avvalo o‘z farzandidan, yaqinlaridan ola boshladi, deb aytishimiz ham mumkin.

Jamiyat rivoji uchun kurashib, hatto o‘z oilasini, farzandini unutish darajasiga borgan shaxsda e‘tiqod nima qilsin. To‘g‘ri, hayotiy jarayon o‘sha davr mafkurasini e‘tiqod qilib oldi, ammo bu e‘tiqodning so‘nggi «kuch» ekanligini anglagani uchun ham qalb iztiroblarini, ruhiyatidagi o‘ziga qarama–qarshi boruvchi holatlarni suratlarga chiza boshlaganligini ham ta’kidlab o‘tish joiz deb o‘ylaymiz. Rassom cholning umr bo‘yi tayangan mafkurasi uni mana shu «ilohiy ne‘mat»dan ko‘pi xazinasidan mahrum qilgani ham juda asosli. Asar qahramoni o‘z hayotini tikkan tuzum jamiyat, mafkurasi shitob bilan yemirila boshlanadi, ana shunda uning ham e‘tiqodi «puch» ekanligini teranroq anglab oldi. U butun o‘tgan umrining, hatto lozim bo‘lsa, hayotining iztiroblarini yuqorida qayd qilgan suratlardagi ramziy

falsafiy ma'nolarga singdirishga bejizga bor kuchi bilan harakat qildi. Tuzumga xizmat qilgan har qanday inson uning bir kun kelib qurboniga aylanishi bejiz emas.

Nafaqat, rassom chol, balki bu asrda ijod qanchadan-qancha odamlar shu holda tuzum, mafkura aldovlariga uchib, imon-e'tiqodsiz dunyodan o'tib ketganligini ko'z o'ngimizda jonlantiraylik. Bundaylar ichida nafaqat, mansab pog'onalaridan ko'tarilib borgan, ya'ni rassom cholga o'xshaganlar, balki shoir va ijodkorlar ham yo'q emas. Ular o'sha mafkurani yashaganligiga ishonch hosil qilgan, ammo har qanday imperiya yemiriladi, o'rnini qachondir, qaysidir tuzum egallashi tarixdan ma'lum. Bizningcha, yozuvchining maqsadi ham o'sha jamiyatning qurboniga aylangan shaxs fojiasini ko'rsatish va «hukmron jamiyat»ning tanazzulini shunday shaxslar hayoti misolida asoslashdan iborat bo'lgan.

Yoki, hozirga kelib faqat ona qornidagina minnat va ta'na qolmadi. Inson hayotda tug'ilganidan to boshi tuproqqa o'tgunga qadar, har nafasda ilinj, ta'na, minnatga hamroh holda, ular qurshovida yashamoqda. Ilinj, ta'na odamlarni ne ko'ylarga solmaydi. Ilinj avvalo nimanidir qo'lga kiritish, olish deganidir. Insonlar jamiyatning ko'plab qayg'ulari, tanazzul holatlari olish evaziga berish muvozanatining tuzilishidan kelib chiqqan degan tushunchalarni ham ilgari surish zarur. Inson taqdiri, uning qismati o'sha tuzum uchun «sariq chaqa»ga arziyas holatga kelib qolgan edi. Jamiyat tanazzuli ham xuddi shu xususiyatlaridan kelib chiqsa kerak. Axir, inson qismati, taqdiri, har bir daqiqasi jamiyat uchun zarur bo'lsa, uni qadrini, e'zozlash zarur va shartdir. Ammo inson zotiga ato etilgan insof boqiydir. Tashqi yoki ichki tazyiqlar, shayton vasvasasi har qancha yo'ldan ozdirmasin, baribir, ertadir-kechdir bu mo'tabar xislatlar inson tanida, albatta, u agar inson degan zotga mansub bo'lsa, yana qayta tiriladi, uni o'zligiga qaytaradi.

U. Normatov asosli fikrlarni bayon etib, asar qahramoni haqidagi haqqoniy xulosani bera olgan: «Maymun yetaklagan odam» qahramonining qisman omadi bor ekan, garchi kechikib bo'lsa-da, u o'zligini anglab yetganday bo'ldi».¹

Darhaqiqat, asar qahramoni yuqorida qayd etganimizdek, o'zligini kech bo'lsa-da anglashga intildi, hatto ma'lum ma'noda anglab ulgurdi. Chunki eng so'nggi suratida bu xususiyatni ko'ramiz va kelgusi avlodlarga achchiq saboq tariqasida yangrashini ham alohida ta'kidlaymiz. Insonning o'ziga xos hayot tarzi, jamiyatdagi insonlardan ajralib turuvchi ruhiy dunyosi, xatti – harakatlari bizni inson va uning hayotidagi mazmun hamda mohiyat haqida fikrlashga ham majbur etadi.

Adabiyotshunos olimi Gulnoz Sattorova "Badiiy niyat va xarakter talqini" nomli maqolasida «Maymun yetaklagan odam» hikoyasini jahon adabiyotidagi mavjud an'analar asosida tahlil qilib yozadi: «Hikoyachi yigitni cholning so'nggi chizgan surati beixtiyor o'ziga tortadi. Bu suratda ham birinchi suratdagi o'rmon aks ettirgan edi. Faqat qarib qolgan, umidsiz ko'zlariga g'am cho'kkan, mung'aygan bir cholni maymun o'rmon sari yetaklab ketardi. Birinchi suratda odam maymunni yetaklab ketayotgan bo'lsa, so'ngisida maymun odamni»² To'g'ri, ammo yozuvchi bu bilan nima demoqchi ekanligiga jiddiy e'tiborni qaratish zarur edi. Tadqiqotchi boshqa bir o'rinda «Eng achinarlisi shuki, birinchi suratdagi maymunlar dunyosidan insoniyat dunyosiga yuz tutgan, tutganidan mag'rurlanib o'rmon sari, jaholat sari yetaklab bormoqda», deb yozadi. Agar o'sha quyuq o'rmonni jaholat deb qarashi lozim bo'lsa, biz uni jamiyat, tuzum deb qarash mantiqan to'g'ri bo'lardi, deb o'ylaymiz.

Asarda tasvir etilgan rassom chol bu hayotning o'zi. Maymunni o'rmondan yetaklab chiqayotgan odam surati esa hayotning, yangi

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –Toshkent, «Ma'naviyat», 2000, 8-betlar

² Sattorova G. Badiiy niyat va xarakter talqini // O'zbek tili va adibiyoti, 2000, 4-son, 12-bet.

jamiyatning boshlanishiga ishora. Chunki inson kelgan payti beg‘ubor, orzuli bo‘ladi. U o‘z orzulari umidlari bilan hayotga katta ishonch bilan qaraydi. Lekin uning qay darajada yashashi o‘zi uchun noma’lum, mavhumlik cholning chirkin, badbo‘y hidlariga o‘ralashib o‘tirishi, bu badbo‘ylikni sezmasligi uning shaxs sifatidagi tanazzulidir. Uning e’tiqodlariga, yaxshiliklariga ishonmasligi ham shundan dalolat beradi.

Ikkinchi tomondan, o‘z fikrimizni yanada asoslaydigan bo‘lsak, rassom cholning hovlisi, ya’ni makon tasvirida sho‘rolar tuzumi, yoki hovli bo‘ylab taralib turgan badbo‘y hid esa sho‘rolar mafkurasining ramziy tasviri degan xulosani chiqarish mumkin.

Agar so‘nggi yillar adabiyoti bilan bir qatorda yozuvchining bu hikoyasini jiddiy talqin etish, inson ruhiy olamning o‘ziga xos qatlamlariga kirib borish, umr mazmuni haqida mulohaza qilishga e’tibor ancha ortib borayotganini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda iste’dodli adib Tog‘ay Murodning fikrlari yodga keladi: «Yolg‘iz odamni bir qo‘ltig‘ida Kafka bir qo‘lida Kamyu bo‘ladi. U zot faqat qo‘ltig‘idagi qalamkashlarni va... yolg‘iz o‘zini tan oladi»¹ degan so‘zlarini qahramon «meni»ni tahlil etishda bir muncha ilgarilab ketgan G‘arb adabiyotini o‘rganish hamda shu asnoda inson haqida o‘z fikri, o‘z ovozigaga ega bo‘lishga chaqirish deb tushunish mumkin.

Shu jihatdan Nazar Eshonqulning «Tobut» hikoyasida ilgari surilgan muammo bilan Kamyuning «Vabo» romanini yodga solish ham bejiz emasdek tuyuladi. G‘arb adabiyotining sezilarli ta’sirini kuzatish mumkin. Hatto Nazar Eshonqulning bu hikoyasini absurd asar sifatida baholaydi. Masalan, Abdulla Oripovning «Fojia», Erkin Vohidovning «Vatan umidi», she’rlari shular jumlasidandir. Murod Muhammad Do‘stning "Lolazor", O‘tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Shukur Xolmirzaevning «Olabo‘ji», Omon Muxtorning «Ming bir qiyofa» romanlarida personajlar

¹ Tog‘ay Murod. Yosh qalamkashlarga tilaklarim. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. –T.: Sharq, 2001, 195-bet.

umri, faoliyatining ular amal qilgan aqidalarining, yashagan muhitning be'maniligiga alohida urg'u beradi. Bu tamoyillar, ayniqsa Nazar Eshonqul ijodida yaqqol namoyon bo'lmoqda»,¹ – deb yozadi.

Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov bu fikrlarni butunlay inkor etadi: «Nazarimda U.Normatov o'z chiqishlarida ana shu narsaga yetarlicha e'tibor qilmayotganga o'xshaydi. Chunki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tuzumlar bilan bog'liq evrilishlar, mafkuraviy almashishlar ob'ektiv tarixiy jarayonlar bo'lib, tuyulishi mumkin, lekin bunda hech qanday absurd yo'q».² Absurd tushunchasi - ma'nisizlikdir. Asar qahramonining ma'nisiz hayotini tasvirlash, absurd asar darajasiga ko'tarilmasligini isbotlashga intiladi va asoslaydi.

Shu o'rinda yozuvchi Nazar Eshonqulning juda ajoyib fikrini keltirishni lozim: «Men atamalarni tan olmayman, so'z sa'atini tan olaman. Hazrat Navoiy zavq bergani kabi bizning tasavvurimizda o'ta modernchi bo'lgan Kafka, Kamyu, Bekketlar ham menga san'at nuqtai nazaridan zavq beradi. Meni ularning qaysi oqimga mansubligi zarracha qiziqitirmaydi... Menga mutlaqo qizig'i yo'q. Atamalar adabiyotshunoslarga kerak, bir-biri bilan bahslashib turishi uchun».³

Achchiq haqiqatdan ko'z yumib bo'lmagani kabi qaysi yo'nalishda, qaysi oqimda yaratilishidan qat'iy nazar inson siymosi mavjud. Uning quvonchi, iztiroblari talqin etilganligi bilan izohlash lozim bo'lsa kerak.

Adabiyotshunos B.Sarimsoqov yozadi: «Absurd asar ma'naviy-axloqiy konseptsiyasiz, muayyan g'oya tashimaydigan, hayotga loqayd va ma'nisiz munosabatni ifodalaydi. Bu — uning belgilovchi me'zoni. Absurd tuyg'u — ma'nisizlik tuyg'usi. U hayotdan bezgan, undan qo'lini yuvib qo'ltiqqa urgan, barcha narsaga ma'nisizlik, loqaydlik nigohi bilan boquvchi tuyg'u.

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –Toshkent, «Ma'naviyat», 2000, 7-betlar.

² Sarimsoqov B. Absurd ma'nisizlikdir // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2002, 21-iyun

³ Nazar Eshonqul. Samoviy ishq lazzati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003, 14-fevral.

Absurd- insonning o'zi yashayotgan jamiyatga, o'z-o'ziga, hattoki, yaratuvchiga begonalik tuyg'usi. Har inson ko'ksida ozgina insoniylik urib turgan yuragi bo'lsa, absurdona hayot tarzini kechira olmaydi».¹ Agar shu nuqtai nazardan qarasak, rassom chol ma'lum bir davrda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun o'z umrini o'tkazgan inson, ammo umrining so'nggi damlaridagina besamar umrga achinadi.

Bu haqida, ya'ni absurd talqin haqida qarashlar turlichadir. «Absurd asar tafakkur jarayoni bilan bog'liq tushuncha. Shu sababli absurd asar ko'proq falsafiy mohiyat kasb etadi. Inson hamisha jumboq bo'lib kelgan. Bu «jumboq»ni o'rganish esa hamisha absurd savollarni, ularni o'rganish esa absurd asarni, ijodni yuzaga keltiradi. Absurd — insonni badiiy tadqiq va tasvir etishning bir usuli xolos. Shu ma'noda absurd ma'nisizlik emas, aksincha, ma'nisiz voqelikdan qochish, voqelik va xayolotning uyg'unligidir»², - deb yozadi Jabbor Eshonqul.

Tadqiqotchi N.Normatova «Uyg'oq tafakkur sadolari» nomli maqolasida esa «Nazar Eshonqulning ijodida o'zgachalik «boshqacha» yozishga intilish ko'zga tashlanadi»³, - deb yozadi. Shuning uchun ham yozuvchi mazkur asarini yozishda ham ana shunday o'ziga xos yo'ldan borgan yozuvchi qahramon holatini va u bilan bog'liq voqelikka oddiy bir kuzatuvchi sifatida nigoh tashlashini ko'ramiz. Shuning uchun yozuvchi o'z taassurotlarini hikoyachi tilidan bayon etadi.

Yozuvchi ijodida Sharq va G'arb badiiy tafakkuri, an'ana va uslublari uyg'un holda namoyon bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotini belgilovchi iste'dodlarning shakllanishi, o'z uslubi hamda ovozigga ega bo'lishda Sharq adabiyoti bilan birga g'arb adabiyoti, xususan A.Kamyu, F.Kafka kabi ijodkorlarning o'ziga xos ta'sir kuchi

¹ Sarimsoqov B. Absurd ma'nisizlikdir // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2002, 21-iyun.

² Jabbor Eshonqul. Voqelik va xayolot uyg'unligi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2002, 7-iyun.

³ Normatova N. Uyg'oq tafakkur suratlari// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1998, 11-sentyabr.

bo'layotganligini ham bugungi kunda bemalol qayd etish mumkin deb hisoblaymiz. So'nggi yillar o'zbek nasritda ob'ektiv olam, undagi voqea va hodisalar hamda qahramon hatti-harakatlari tasviri bilan birga uning tafakkur jarayonini tadqiq etishga diqqat qilinmoqda. Insonni tasvirlashda modernistik yo'nalishdagi G'arb adabiyotidagi tajribalardan foydalanish, foydalanganda ham shunchaki nusxa ko'chirish emas, balki ijodiy ravishda, milliy adabiyot an'analari bilan sintezlashtirilgan tarzda foydalanish o'zbek adabiyotini boyishiga olib bormoqda. Shuningdek, mazkur jarayon turfa xil janrlarning shakllanishi bilan ham chambarchas bog'liq.

Tadqiqodchi A.Toshpo'latov janr xususiyati haqida: «Nazar Eshonqul asarlari biz ko'nikib qolgan, odatlangan hikoyalar qolipiga tushmaydi. Ular dramatik ziddiyatlarga va favqulodda hodisalarga boy, biz anglagan mantiqlarga zid, kutilmagan yechim va burilishlarga ega bo'lib, beshafqat hayot haqiqati, insonning bezovta ruhi, holati keng tahlil qilinadi. Xuddi shu xususiyatlardan kelib chiqib, Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam», «Shamolni tutib bo'lmaydi» kabi kichik hajmdagi asarlarini psixologik novellalarga kiritish mumkin.

Ko'rinyaptiki, san'at asarlari hamma davrlarda ham turlicha qarashlarga, tahlillarga tortiladi. Hikoya va novella o'rtasidagi farq orqali bu asarni novella janriga kiritadi. «Novellani kofliktsiz tasavvur etish mumkin emas. «Maymun yetaklagan odam»da psixologik konflikt yetakchilik qiladi. Chunki asar qahramoni qalbidagi hissiyotlar hayotda o'lchab berilgan umrning kuchli va ojiz tomonlari bilan mungli va ojizona kurash olib boradi. Ya'ni asarda voqealar mantig'i emas, balki xarakterlar ruhiyati mantig'i asar asosini tashkil qiladi».¹

Hikoyada ramziy tasvirlar orqali ifodalangan be'mani hayotning achchiq qirralari, cholning qalb iztiroblari o'ziga xos talqinga ega. Shu jihatdan

¹ Toshpo'latov A. Nazar Eshonqulning psixologik novellalari // O'zbek tili va adabiyoti, 2008, 3-son, 67-bet.

e'tiborni keyingi yillar nasr va she'riyatida insonning «men»ini tadqiq etishga ancha diqqat qilinmoqda. Ayniqsa, nasrda qahramonni muhit, jamiyat va siyosat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki inson hamda o'ziga xos olam sifatida o'rganish, kashf etish birlamchi me'zonga aylanib qoldi. Shu bilan birga inson tabiatidagi qarama-qarshiliklarni tasvirlashda noan'anaviy shartlilik usulining turli ko'rinishlari ko'zga tashlanmoqda. Bu jihatni Nazar Eshonqul asari orqali ham isbotlash mumkin.

Ijodkorning ehtirosli badiiy tafakkuridan dunyoga kelgan badiiy obrazlar tasviri metaforaga yo'g'rilgan his-tuyg'ularni ifoda qiladi, kitobxonni metaforaga yo'g'rilgan badiiy fikr orqali hayot haqiqatini, inson ruhiyatini tasavvur qildiradi. Yozuvchi N.Eshonqul yaratgan asarlar tahlili shundan dalolat beradiki, ijodkorlar kitobxonga ma'lum predmetlarning belgi alomatlariga asoslanib, ramziylik vositasida mushohada talab falsafiy, hayotiy badiiy umumlashmalar yaratishga erishmoqdalar. Shuni idrok etamizki, tasavvurimiz miqyoslari biz his etgan tuyg'ularning yangi-yangi ma'nolari bilan boyib, kengayib, ijodkor iste'dodini namoyon etadi. Yozuvchi Nazar Eshonqulning tadqiqot ishimizda tahlil qilingan asarlarida aniq bir g'oya ilgari surilmaydi, balki hodisa, holat tasavvur qildiriladi; manzara esa tasavvurimizga joylanadi, fikrga esa yo'nalish beriladi. Eng muhimi, mazkur asarlardagi tasvirlar va majozlardan insonga xos jozibali, sirli-sehrli, murakkab va betakror ruhiyat his qilib anglanadi.

Darhaqiqat, hozirgi hikoyachilikda rang-barang uslubiy izlanishlar natijasida epik ko'lam miqyoslarini kengaytirib, o'zbek nasri taraqqiyotini ta'minlamoqda. Mustaqillik davrida yaratilgan o'zbek hikoyalarida ijtimoiy voqelikni tasdiqlash yoki inkor qilish emas, uni bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlash tendensiyasi nasrimizda barqaror ijodiy tamoyilga aylanganligini ko'rsatmoqda.

N.Eshonqul hikoyalaridagi badiiy ifoda tarziga ko'ra undagi har bir jumla qahramon ruhiyatini, qilmish-qidirishlarini ayon etish barobarida yana yangi fikr tug'diradi. Qolaversa, adib asarlarida so'zlar aslo jaranglamaydi, yaltiramaydi, shovqin-suron ko'tarmaydi. Ular ma'yus, mahzun, dardchil va dilgir suhbatdosh, sifatida hosil bo'ladi. Ular hamisha odamni o'ylashga, o'zini tanishga, o'zligini anglashga va shu jarayonda o'zligini ayon etishga undaydi. Shu taxlit ajib va sirli tafakkur hayotiga olib kirib, ma'naviy-intellektual hayotidagi kechinmalar manzarasi bilan tanishtiradi. Ruhi, qalbi bor asar ana shunaqa joziba salohiyatga ega bo'ladi. U adib qalbidan andoza olganligi boisdan ham ijodkor ko'nglining qayta tiklangan adabiy-badiiy ko'zgusi bo'lib qoladi.

X U L O S A

Istiqlol mafkurasining o'zak mohiyatini insonni, shaxsni kamol toptirishdek g'oyat mas'uliyatli vazifalar tashkil etadi. Bu narsa insonni, voqelikni estetik idrok etish va tasvirlashdagi yangi-yangi badiiy umumlashmalar kashf qilish bilan belgilanadi. Mazmunan yangi yo'nalish kasb etgan mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligida jahon sivilizatsiyasi tarixida yangi sahifa ochgan, yangi ozod hayotni yuzaga keltirgan o'zbek fenomenini olib kirgan erkin shaxsning ob'ektiv voqelik bilan uzviy bog'liqligini, qalb hayoti manzaralarini aks ettirish bosh muddao bo'ldi. Ana shu jarayonda hikoyachiligimiz shaxsning jamiyat, tabiat bilan uzviy bog'liqligini yoritishda falsafiy-psixologik tahlil madaniyatini chuqurlashtirish yo'lidan bormoqda.

XX asr adabiyoti rivojida asrimiz so'nggi choragi alohida ajralib turadi. Bu davr adabiyotida jahon adabiyotidagi yetakchi an'analar u yoki bu darajada sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligini, bu hol esa ijobiy tomonga yuksalishini ko'rsatmoqda. Adabiyot inson taqdirini, uning eng murakkab olamini, ya'ni «men»ini tasvirlash an'anasini yuzaga chiqardi. Bu holatni nafaqat she'riyatda, balki nasrimizda ham bimalol ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan Nazar Eshonqul ijodini alohida qayd etish lozim. Yozuvchining asarlarida murakkab taqdir egasi inson - uning ma'naviy, ruhiy olami o'ziga xos uslubda talqin etiladiki, bu esa o'zbek kitobxoni uchun noan'anaviy talqin tushunchasini ham shakllantirdi.

Yozuvchi ijodini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, G'arb adabiyoti yoki jahon adabiyotining eng go'zal asarlari bilan yaqindan tanish ekanligi, A.Kamyu, J.Joys, F.Kafka kabi iste'dod sohiblarini e'zozlash bilan bir qatorda, ular yaratgan asarlardan ma'lum ma'noda ma'naviy quvvat olishini ham angladik. Shu jihatdan ular yaratgan asarlar o'rtasida mantiqiy

bog'liqdik bordek tuyuladi. Chunki, hech bir xalq adabiyoti alohida rivojlana olmasligi hech kimga sir emas. Ikkinchi tomondan esa hikoya janrini an'anaviy shakldan noan'anaviy shakl tomon burilishida ham Nazar Eshonqulning o'rnini qayd etish lozim deb o'ylayman. Yillar davomida an'anaviy shaklda yaratilib kelinayotgan hikoya janrini jahon adabiyoti bilan bellasha olish darajasiga olib chiqdi desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Yozuvchi qalamiga mansub hikoyalarni jahon adabiyotining yaxshi na'munalari bilan bir qatorga qo'yish mumkin. Uning ijodiy evolyutsiyasiga nazar tashlash orqali o'zbek hikoyachiligi rivojidadagi muvaffaqiyatlarni ham, xususiyatlarni ham asosiy tendensiyalarni ham ko'rish mumkin. O'z hikoyalarida hayotning ko'z ilg'amas tomonlarini asos qilib oladi va shunga monand mazmunni, syujetni maydonga keltiradi, muhim ramziy faktlarni unga singdirib yuboradi. Ular katta hayot haqiqati, muhim g'oyani, e'tiqod va e'tiqodsizlikni o'zida mujassamlashtiradigan tipik hodisalar talqinini yuzaga olib chiqadi.

Ma'lumki, inson kundalik tashvishlarini unutib, xoli vaziyatda fikr yuritar ekan, uni «yolg'izlik» qamrab ola boshlaydi. Bunday tashvishlanishga hayotdagi kurashlar, ziddiyatlar asta-sekin sabab bo'lgan bo'ladi. Hattoki, qahramonning yashashning ma'nisizligini anglab ulgurgandagina yanada fojialiroyq holatga tushish jarayonlari yozuvchi ijodida o'ziga xos tasvirlarda aks ettiriladi.

Yozuvchining «Maymun yetaklagan odam» hikoyasi achchiq qismat egasiga aylangan shaxs hayoti orqali tanazzulga yuz tutayotgan jamiyat illatlarini haqqoniy ko'rsatib beradi. Asarda bir necha sanoqli obrazlar tizimi ko'zga tashlanadi, ammo ular davrning turli xislatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi qahramonlardir. Asardagi rassom chol hayoti, u yaratgan san'at asarlari, yoki «bo'yoq chaplangan» qo'l chiqib ketmaslik uchun mehnat qilingan asarlarda juda o'ziga xos uslubda ramziy ma'nolarni

singdirib yuboradiki, bu esa kitobxonlardan falsafiy mushohada yuritish, asosli dalillar, tushunchalarni yuzaga chiqarishni talab qiladi.

Yozuvchi ijodiga jahon adabiyotidagi yetakchi an'analar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu holatni «Maymun yetaklagan odam», «Tobut» hikoyalari Kamyuning «Begona» yoki «Tobut» bilan bir xil xususiyatlarni uning «Vabo» romani bilan qiyoslash mumkin. Ana shu fikrlarga tayangan holda yozuvchi G'arb va Sharq adabiyotidagi yetakchi badiiy xususiyatlarini o'z asarlariga singdira olgan degan xulosani chiqarishga imkon beradi.

Adib hikoyalarida falsafiy mulohazakorlik alohida ahamiyat kasb etgan holda butkul tafakkur shu'lasini bilan sug'orilgan va badiiy tasvir tabiatida teran mushohadakorlikka qurilgan ruhiyat tahlili ustuvor, deya tavsiflash mumkin. Buni holni keyingi yillarda shakllangan falsafiy-psixologik tasvir madaniyati, deya ta'riflash joiz.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, falsafiy idrokka asoslangan psixologizm, ya'ni ruhiyat tahlili va talqini mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida yanada shakllanishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash-davr talabi.-T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Tarix, ma'rifat, ma'naviyat.- T.: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.

II. Ilmiy adabiyotlar

6. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar.-T.: Fan, 1978. I jild.
7. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy tarixiy jarayon..-T.: Fan, 1979. II jild.
8. Adabiyot-ruhiyat mulki (Adiblarimizning ijod sirlari haqida durdona fikrlaridan).-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
9. Boltaboev H. Nasr va uslub: hozirgi o'zbek nasrida uslubiy izlanishlar.-T.: Fan, 1992.
10. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-T.: O'zbekiston, 2002.
11. Vladimirova N.V. O'zbek hikoyachiligida g'oya va obraz.-T.: Fan, 1969.
12. Nasrimiz ufqlari.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
13. Nasrimizning badiiy olami.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
14. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar.-T.: Ma'naviyat, 2000.
15. Rasulov A. Yangi zamon-yangi qahramon.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
16. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari.-T.: Fan, 2004

17. Togʻaev O. Adiblar va janrlar.-T: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1976.
18. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi oʻzbek romanchiligi. -T.: Fan, 1983.
19. Umurov H. Adabiyot nazariyasi.-T.: Sharq, 2002.
20. Sharadifiddinov O. Hayot bilan hamnafas. Adabiy oʻylar. -T.: Yosh gvardiya,1983.
21. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy tanqidiy maqolalar.-T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989.
22. Oʻzbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.-T.: Fan,1983.

III. Dissertatsiya avtoreferatlari

23. Doʻstmuhammedov X. Hozirgi oʻzbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi (80-yillarning ikkinchi yarmi, 90- yillarning boshi): Filol. fanlari nomzodi dis. ... avtoref. -T.: 1995.
24. Sattorova G. 90-yillar oʻzbek hikoyachiligida milliy xarakter muammosi: Filol. fanlari nomzodi dis. ... avtoref. -T.: 2002.
25. Matyakupov S. Hozirgi oʻzbek hikoyalarida inson konsepsiyasi va shaxs badiiy talqini: Filol. fanlari nomzodi dis. ... avtoref. -T.: 2001.

IY. Gazeta va jurnallardagi maqolalar

26. Garipova G. Hozirgi oʻzbek hikoyalarida zamon va makon talqini // Oʻzbek tili va adabiyoti. -2003. -№1.
27. Garipova G. Hozirgi oʻzbek hikoyasida inson ekzistensial yolgʻizlik «koʻzgu» sida // Oʻzbek tili va adabiyoti. -2003. -№ 6.
28. Doniyorova Sh. Davr va qahramon muammosiga doir // Oʻzbek tili va adabiyoti. -1999. -№ 3.
29. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzaevning hikoyachilikdagi mahorati // Oʻzbek tili va adabiyoti. -2000. -№ 2.

30. Davronova Sh. Yozuvchining ijodiy individualligi // O‘zbek tili va adabiyoti. -2001. -№ 6.

31. Karimov H. O‘zlikning badiiy ifodasi. Hikoyalarda hayot muammolari talqini // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. -2003. 11-iyul.

32. Mirzaev S. Xalqchil adabiyot yo‘lida // Muloqot. -2000. -№5.

33. Normatov U. Jasorat jozibasi. Davr va qahramon xususida o‘ylar // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. -2001, 4-may.

34. Nazarov B. Tanqidchining ruhiy dunyosi // O‘zbek tili va adabiyoti. -2003. -№ 3.

35. Pardaeva Z. Yoshlar nasrida badiiy me’yor // Yoshlik. -2002. -№2.

36. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. -2001. -№ 6.

37. Rustamova M. Hozirgi hikoyachilikda ruhiyat talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. -2003. -№4.

38. Sarimsoqov B. Adabiyotda shakl va mazmun mutanosibligining ayrim muammolari // O‘zbek tili va adabiyoti. -1997. -№6.

39. Sattorova G. Inson irodasining badiiy-tasviriy talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. -2001. -№6.

40. Eshonqul N. Ijod ruhning hurlicidir // Yozuvchi. -1998. 21-yanvar.

41. Eshonqul N. Ijod qudrat, go‘zallik, ilohiyotga dahldorlikdir // Milliy tiklanish. -1998. 19-may.

Y. Adabiy asarlar

42. Eshonqul N. Shamolni tutib bo‘lmaydi // O‘zbekiston adabiyoti san’ati.-1996. 26-iyul.

43. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.

44. Quyosh fasli: (Qissa va hikoyalar to‘plami).-T.: Yozuvchi, 1995.